

**O`ZBEKSTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DALAT UNIVERSITETI

MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

**4-KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI
SHAMSIEVA YULDUZNING**

**8-SINFDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI O`QITISH METODIKASI
MAVZUSIDA**

***MALAKAVIY BITIRIUV
ISHI***

(2010-2011 o'quv yili)

Ilmiy rahbar:

**Tarix fanlari nomzodi,
dotsent R.Ə.Kilichev**

Buxoro-2011

Mavzu: 8-sinfda milliy istiqlol g`oyasini o`qitish metodikasi.

Reja:

Kirish

1. Milliy istiqlol g`oyasini o`quvchilar ongiga qay tarzda singdirilayotganining amaliyotdagi ahvoli.

2. “Milliy istiqlol g`oyasi” fanini o`qitishda ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish.

3. 8-sinfda "Milliy istiqlol g`oyasi" fanini o`qitishda interfaol usullar.

4. 8-sinfda “Milliy istiqlol g`oyasi” faniga oid mavzularni o`qitish bo`yicha dars ishlanmalar.

Xulosa

Ilova

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mustaqillik tufayli hayotimizga kirib kelgan milliy istiqlol g'oyasini ta'lim muassasalarida hozirgi davr talabi asosida chuqur o'qitish o'ta dolzarb masalalardan biridir. Ma'lumki, odamzod jamiyat bo'lib yashashga o'tgan davrlardan boshlab, muayyan dunyoqarash bilan uzviy bog'liq holda ma'naviyatni qaror toptirishning birdan-bir vositasi g'oyaviy ta'sir ko'rsatish ijtimoiy murvvati (mexanizmi) sifatida mafkura shakllangan.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizcha tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman... Bu mafkura xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub mangfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir».¹

Milliy g'oya tarixan tarkib topgan ma'lum bir millat manfaatlari va ehtiyojlari ifodasi bo'lib, uni mafkuraviy vositalar orqali odamlar ongiga singdiriladi va shu asosda individlar umummillat manfaatlarini anglab, shaxsiy, guruhiy, sinfiy va boshqa manfaatlarini unga muvofiqlashtirish malakasini o'zlarida hosil etadilar. Milliy g'oya odamlarning o'zaro hamjihatligi uchun asos bo'ladi, kuchli ma'naviy ruhiy omilga aylanib, taraqqiyotga xizmat qiladi.

Abu Nasr Forobiy ma'naviy ozodlik, inson takomili, adolatli jamiyat qurishning birdan-bir sharti odamlarni ezgulikka chorlash, g'oyaviy jihatdan voyaga etkazish, deb bilgan va bu haqda shunday deb yozgan: «Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va xohishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, bu qilmishlari yomon

1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. –T., «O'zbekiston», 2001, B.221-222.

va noo`rinlidir...»¹.

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, B.188.

Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Prezident I.A.Karimov 2000 yil 6 aprelda milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasining asosiy tamiyillarini yaratish masalasiga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Binobarin, mana shu o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos-bu milliy g'oya, milliy mafkuradir».²

8-sinfda o'qitiladigan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismi milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari bilan bog'liq bilimlarni qamrab oladi. Ikkinchi qismi esa ma'naviyat asoslarini o'rganadi. Biz o'z oldimizga birinchi qismga oid mavzularni o'qitishda qo'llaniladigan metodlarni tadqiq qilishni **maqsad** qilib qo'ydik va shundan kelib chiqib quyidagi **vazifalarni** belgilab oldik.

1. Milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar ongiga qay tarzda singdirilayotganining amaliyotdagi ahvoli tahlil qilish.
2. 8-sinfda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol usullar haqida ma'lumot berish.
3. Milliy g'oyaning tarixiy va falsafiy asoslari, milliy g'oya tizimidagi – yurt tinchligi g'oyasi, Vatan ravnaqi g'oyasi, xalq farovonligi g'oyasi, komil inson g'oyasi, ijtimoiy hamkorlik g'oyasi, millatlararo hamjihatlik g'oyasi, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi mavzularini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi bilan chuqurroq tanishtirish.

1. Milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar ongiga qay tarzda singdirilayotganining amaliyotdagi ahvoli.

2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T., «O'zbekiston», 2000. B.463.

Darhaqiqat, milliy istiqlol g'oyasini yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

G'oyaviy tarbiya tushunchasi. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining tub manfatlari, asriy orzu – umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib xalqning o'z maqsad-muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy, kuch-quvvat bo'ladigan poydevordir. Bu jarayon jamiyat a'zolarinig tub manfaatlarini ko'zda tutadi, binobarin, har bir fuqaroni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash shu yurtning farzandlari uchun muqaddas burchdir.

G'oyaviy tarbiyaning mohiyati. Shaxs tarbiyasining yunalishi-bu g'oyaviy tarbiyadir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga kura g'oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog'chasinimi, mahalla, maktab, kollej, lisey, universitet yoki akademiyani olamizmi-hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari talaba va tenglovchilar dunyo qarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun keragi bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yunaltirilgan bo'ladi.

G'oyaviy tarbiyaning maqsadi. Har kanday mafkuraviy tarbiyaning maqsad jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir.

Mafkuraviy tarbiyaviylik eng avvalo yuksak ehtiqod, iymon, Vatan va xalq oldidagi mashuliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash. Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va ehtiqod tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

► **Mashuliyat.** G'oyaviy tarbiya mezonlaridan biri bu mashuliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Mashuliyat odamning har bir amali, faoliyati maxsulini tuliq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir.

► E'tiqod -psixologik hamda ijtimoiy – psixologik tushuncha bo'lib, odamning muayyan qarash,tag'limot,nazariya,hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini emosional – hissiy qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuidir.

► “Iymon” arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonchdir. Haqiqiy ehtikod egasi bo'lgan odamda iymon ham bo'ladi.

Sog'lom dunyoqarash, mashuliyat, iymon va ehtikodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy obg'ektiv shart-sharoitlari va omillarini ajratib ko'rsatib utish mumkin:

a) ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy – mahrifiy muhit. YOshlarda sog'lom ehtiqod va yuksak dunyoqarashning shakllanishi uchun ma'lum muhit ham zarur.

b) sog'lom g'oyalar komil inson tarbiyasi uchun yaratilgan sharoitlar,aynan kelajagimiz bo'lgan yoshlarning manfaati uchun xizmat qiladi.

v) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishida siyosiy partiyalarning o'zni va ahamiyati katta.

g) yoshlarning bilim darajasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va “Ta'lim to'g'risida”gi qonun yoshlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan tarixiy hujjatdir.

d) odatiy, anhanaviy fikrlash tarzidan yangicha, ilg'or fikrlashga o'tish mafkuraviy yangilanishlar jarayonining muhim xususiyatidir. Milliy istiqlool g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarining keng omma qalbi va ongiga singdirish birdaniga, tez va bir tekisda ruy bermaydi. Bu murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, bu jarayonda, boshqa ijtimoiy qatlam vakillaridan farqli ularoq yoshlar tashabbuskorlik ko'rsatishi va o'z dunyoqarashi va ehtikodi bilan boshqalarga ta'sir ko'rsatishi kerak.**(Ilova №1)**

Oilada mafkuraviy tarbiya. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va ehtikodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat uchog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi.

Ota-onalar savodxonligi. Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng kulay yuli – avvalo, ota-onalarning ma’naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog’lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir.

Bobolar va momolar tarbiyasi. O`zbek oilasida bola ongida sog`lom g`oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari – bobolar, momolar yaqin qarindosh – urug`lar ham bevosita ishtirok etadi.

Masalan, Amir Temurning nevaralari tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug` bibilari – buvilari shugullangan. Xususan, Shoxruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug`bek Mirzo singari temuriy shaxzodalar Saroymulkxonim kulida tarbiya topgan.

**Sog`lom ijtimoiy muhit.** Mahalla – tarbiyachi. O`zini – o`zi boshqarishning milliy modeli bo`lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf – odatlari va an`analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand – nasixati kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjixatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g`oyalari singdirib boriladi.

Mahalla avvalo sog`lom ijtimoiy muhitdir. Bu erda kuchli ta’sirga ega bo`lgan jamoatchilik fikri mahalla axlining xulk-atvori. O`zaro munosabatrini adolat mag`naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu manoda mahalla, Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Ayol, ona – ezgulik timsoli. Mafkuraviy tarbiyada onaning aloxida urni va nufo`zini hisobga olib, xotin-kizlarning bola tarbiyasi va oilaviy ro`zgor ishlarini yuritish borasidagi bilimdonliklarini shakllantirib borish.

Ma’naviy qadriyat. Anhanalar, udumlar, rasm-rusmlar. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaxo mehros sifatida utib kelayotgan urf – odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g`oyalarining singdirishda muhim omil bo`ladi.

Muloqot madaniyati – insonga xos ma’naviy ehtiyoj bo`lib, undagi umumiy madaniy saviyaning muhim ko`rsatkichidir. Mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri ham muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida ongida shakllanadigan dunyoqarash, ehtikod, iymon, vijdon, mashuliyat kabi fazilatlar

tarbiyasida yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonnig yuzi va ko`ziga qarab turib aytiladigan bahmani so`z va xissiyotlarning urni beqiyosdir.

Ta`lim maskanlari:

O`zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o`zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol g`oyalarini yoshlar qalbi ongiga singdirishning ustivor yunalishlaridandir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbiga va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini kamrab olish, ta`lim-tarbiya, targ`ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish takozo etiladi.

Ta`lim-tarbiya sohaları milliy istiqlol g`oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishdning ustivor yunalishlaridandir.

Bunda quyidagi vazifalar ko`zda tutiladi:

1. Ta`lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga xos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishda differensial pedagogik-psixologik dasturni yaratish;
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o`quvchi-talabalar ongida milliy g`oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
3. O`quv dasturlari, darslik va qo`llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g`oyalarini teran aks ettirish;
4. Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga kutarish;
5. Pedagog kadrlarni mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
6. Ta`lim-tarbiyaning har bir alohida bosqichi o`z navbatida milliy g`oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o`ziga xos omillarini nazarda tutadi.

Bevosita ta`lim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o`choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta`lim jarayonida barcha

o`quv qo`llanmalari va darsliklar qo`shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustivor ahamiyat kasb etishi lozim;

-Vatan va milliy iftixor tuygusini shakllantirish;

-oilaning vatanparvarlik xissini tarbiyalashdagi rolini ko`rsatish;

-mahallaning demokratiya darsxonasi va o`z-o`zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish;

-umuminsoniy kadryatlarning millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilimlarga intilish va ilg`or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uktirish;

-dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglatish;

-mahrifatning shaxs intellektual saloxiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash;

-tarixning, mafkuraning falsafiy asosini yaratishdagi ahamiyatini ochib berish;

-huquqiy madaniyat sog`lom dunyoqarashning muhim omili ekani to`g`risidagi ma`lumotlarni ko`paytirish.

Bu ishlar ijtimoiy gumanitar fanlarning ma`no mazmuni va ularni o`qitish texnologiyalarini takomillashtirishni, yoshlarni mustaqil fikrli bo`lishga, ijobiy o`zgarishlarga befarq bo`lmagan, chuqur bilimlarga intilib yashashga urgatishni taqazo etadi. Ta`lim jarayonida ijtimoiy trening mashg`ulotlarining milliy mintaleltitga mos shakllaridan samarali foydalanish tarixiy va madaniy merosni chuqur o`rganish bilan bir qatorda ilg`or, zamonaviy bilimlar egasi bo`lishga intilishning oshishiga turtki bo`ladi. Ta`lim muassasalarida yaratilgan o`quv qo`llanmalaridan tortib, sinflar va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy ta`lim beruvchi ijtimoiy reklamalar bilan qurollantirish maqsadga muvofikdir. Yoshlardagi sog`lom dunyoqarash va ilmga ishtiyoqni har tomonlama qullab-quvvatlashda homiylik va vasiylik tashkilotlari imkoniyatlaridan to`la foydalanish va shu orqali jamiyat keng qatlamlari vakllarini ta`lim tarbiyani takomillashtirishiga safarbar etish zarur. Dunyoviy ilmlarni mukammal bilish daxriylik belgisi emasligini har bir yoshning teran anglab etishi muqaddas islom dinimizning iymon

– e’tiqodga, insof – diyonatga chorlovchi kuchni yanada oshiradi. Eng muhimi – mamlakatimizda qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturi har tomonlama barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga etkazishning jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan tarixiy hujjati ekanini tushuntirish va uni amalga oshirishga butun kuchni safarbar etish zarur.

Bugungi kunda mafkuraviy immunitetni shakllantirish vositalaridan samarali foydalanish, o’quvchi-yoshlarda kuchli shakllangan mafkuraviy immunitetni talab darajasida shakllantirish va bu yo’nalishdagi ishlarni samarali olib borish-jamiat a’zolarining har biri oldidagi dolzarb vazifalardan biri deb, qaralmoqda.

Amaliyotda mafkuraviy immunitetni shakllantirish vositalari: a) kuchli bilim; b) qadriyatlar tizimi; v) maqsadlar tizimi shaklida yo’naltirilgan.

Yuqoridagi holatlar ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy jarayon, mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlariga zamonaviy **pedagogik-psixologik, zamonaviy texnologiyalarni qo’llash zaruriyatini** keltirib chiqargan.

Barcha ta’lim maskanlarida olib borilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali natijasini avvaldan kafolatlash chora tadbirlarini ishlab chiqish, o’quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va yo’naltirish davr talabiga aylantirilgan. Bu kabi ishlarni amalga oshirishning o’ziga xos muammolaridan biri-tarbiya jarayonida o’quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini, dunyoqarashini, fikrlash va tafakkurini maqsadli shakllantirish va yo’naltirish deb qaralgan.

Hozirgi paytda, jamiyatimizning barcha bo’g’inlarida, mamlakatimizdagi barcha tashkilotlar hamda muassasalar (shu jumladan, nodavlat, jamoa tashkilotlari va jamg’armalar) oldida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda bir-biri bilan uzviy bog’langan hamkorlik ishlarini amalga oshirish zarurdir.

Aynan mamlakatimizda faoliyat ko’rsatayotgan ishlab chiqarish tashkilotlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari (shu jumladan, mahalla, «Kamolot» va boshqalar)ning o’zaro chambarchas bog’langan hamkorligini amalga oshirish natijasida, mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlari yuqori samara va natija berayotganligi ta’kidlanadi. **(Ilova №2)**

Amaliyotda mana shu shakllar asosida jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan

ishlar olib borilgan. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonining asosiy obyekti bo'lgan-o'quvchi-yoshlarning har biri mustaqil shaxs sifatida turlicha shakllangan intellektual salohiyatga, har xil fikrlash qobiliyatiga egadir. Bunday holat esa hamma uchun maqbul bo'lgan yondoshuvni talab qilmoqda.

Respublikamizning ko'pgina maktablarida o'quvchilar ongiga milliy g'oyani singdirish va ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda quyidaga tarbiya jarayonini amalga oshirib kelishmoqda.**(Ilola №3)**

Demak, tarbiyaviy jarayonni ta'lim muassasasida shakllantirishda muhitni qayta shakllantirish va rivojlantirishni, «oila-ta'lim muassasasi-mahalla» hamda «tarbiya-muhiti» uzviyligining mazmun va mohiyati jihatidan birligini mustaqamlashni nazarda to'tgan qolda ish olib borilmoqda.

Tarbiyaga pedagogik-psixologik texnologiyalarga asoslangan uslubiyotlarni joriy etish va qo'llash - zamon, taraqqiyot talablaridan biriga aylangan. Shunga ko'ra, aniq natijaga yo'naltirilgan tarbiyaning quyidagi usullaridan foydalanilib kelinmoqda.**(Ilola №4)**

Yuqoridagi chizmada ko'rsatilganidan tashqari, yana bir qator tashkiliy, ijtimoiy, pedagogik hamda psixologik omillar bor. Jumladan:

- yoshlar tarbiyasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi;
- moddiy-texnik bazaning talab darajasida ta'minlanganligi;
- ijtimoiy ijobiy muhitning yaratilganligi;
- professor-o'qituvchilar (murabbiy, ustoz, tarbiyachi va boshqalar) bilan talabalar o'rtasida ijodiy munosabatning shakllanganligi;
- ilmiy, ilmiy-uslubiy va me'yoriy-uslubiy ta'minlanganlik;
- jamoada ijobiy ta'sir kuchi va individual yondoshuvning mavjud emasligi;
- zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi.

Agar tarbiya jarayoni tizimli yondoshuvga o'tkazilsa, yuqoridagi har bir omilning jarayonga ta'siri o'rganilib, yaratilayotgan tizimda o'z o'rnini topib, foydalanilishi kerak.

Misol tariqasida oladigan bo'lsak, muhitning talab darajasida shakllanganligi-tarbiya jarayonining samaradorligiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Maktab

o`quvchilarining dunyo qarashini shakllantirishda ham tarbiya texnologiyalaridan o`rnili foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikda faoliyat olib borishning ahamiyati beqiyosdir. Bunda asosiy maqsad: oilada, maktabda, mahallada olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning uzviyligini ta'minlash hamda **«oila-maktab-mahalla»** tarbiya muhitining yaxlitligini shakllantirishdir. Maktabdagi tarbiya jarayoniga oila va mahallaning jalb etilishi esa natijaning samarali bo`lishini ta'minlaydi.

Barcha ta'lim muasasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya hamda milliy g`oyani singdirish jarayonining monitoringini shakllantirilgan. Maktab doirasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari risoladagidek amalga oshirilgan ekan, monitoring nima uchun kerak?-degan savol yuzaga kelishi tabiiydir. Shu o`rinda monitoring nima uchun kerak?-degan savolga javob berib o`tish lozim. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida monitoringni shakllantirishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat ekanligi mutaxassislar tomonidan tahkidlandi:

- olib borilayotgan barcha tarbiyaviy ishlarning uzviyligini ta'minlash;
- tarbiyaning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash;
- yuzaga kelishi mumkin bo`lgan kamchiliklarni o`z vaqtida bartaraf etish;
- tarbiyaviy jarayoniga yangi o`zgartirishlarni kiritish;
- tarbiya ishlarining tahlilini amalga oshirish kabilardan iboratdir.

Maktab miqyosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarning monitoringini shakllantirish o`z navbatida jarayonning qanday holatda ekanligini, kanday ahvolda ishlar amalga oshirilayotganligini ko`zatish imkonini beradi. Bundan tashqari monitoring natijalari asosida tarbiyaviy jarayonga tegishli takliflarni ham ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.**(Ilova №5)**

Tarbiyaviy jarayonning monitoring tizimi aslida - jarayonni muvofiqlashtiruvchi, yo`naltiruvchi va tahlil qiluvchi, yuzaga kelayotgan kamchilik va muammolarning asoslangan yechimini ishlab chiqishga qaratilgan majmuadir.

Monitoringni tashkil etishdan asosiy maqsad-ishlarni barcha yo`nalishlarda ko`zatish, jarayonning uzviyligini va uzluksizligini muvofiqlashtirish, natijalar asosida takliflarni ishlab chiqishdir.

Monitoringga qo`yiladigan talablar:

- monitoring uslubi davr talabiga mos kelishi shart;
- jarayon to`liq qamrab olinishi, uni boshqarish imkoniyatini yuzaga keltirish;
- texnologiyalarning qo`llanilishi natijasida, jarayonning sifatini ta'minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqish;
- jarayonning qanday borayotganligini kuzatish, tahlil qilish, taktika va strategiyani qayta qurish imkoniyati hamda unga tuzatishlar, o`zgartirishlar kiritish imkoniyatiga ega bo`lish kabilardan iboratdir.

Monitoringning yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- barcha bug`inlardagi faoliyatlarning uzviylashgan bog`lanishini ta'minlash;
- o`quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish ishlarini muvofiqlashtirish;
- tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishda uzviylikning ta'minlanishini o`rganish va tahlil qilish;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlarni rivojlantirish va Vatanga fidoyilikni shakllantirish jarayonlarini o`rganish;
- mustaqil fikrlash jarayonlarining borishini o`rganish va tahlil qilish.

Shu o`rinda tahkidlash lozimki, monitoring asosida faoliyatni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiqlashtirish kabi tashkiliy ishlarni bajarish kerak.

Bunda tizimli yondoshuvni qathiy ta'minlash lozim. Tizimli yondoshuv esa yuzaga keladigan kamchiliklarni o`z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi. Natijada tarbiyaviy ishlarning sifati ta'minlanadi. Monitoring quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- yagona dastur asosida jarayonni to`liq ishlab chiqish;
- jarayonning dastlabki holatini aniqlab olish, joriy va strategik vazifalarni belgilash;
- jarayonni to`liq loyihalashtirish va boshqarish dasturini ishlab chiqish;
- jarayonning monitoring asosini yaratish va ma'lumotlarning analitik tahlili;

-tahlil asosida yo`l qo`yilgan xatolik, kamchiliklarni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

-jarayonni amalga oshirishda ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

Monitoringni boshqarish quyidagi tarkibiy jarayonlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish va yo`naltirish imkonini beradi:

-boshqaruvni joriy va strategik yo`nalishlarda olib borish;

-yo`l qo`yilayotgan xato va kamchiliklarni o`z vaqtida aniqlash va tuzatish;

-kelgusida bo`lajak holatlarning oldini olish.

Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash turli g`oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda. Shu bilan birgalikda turli texnologiyalarga asoslanib, g`oyaviy ta'sir ko`rsatish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Axborot almashuv va tarqatishning tezlanishi natijasida, har xil quddud yoki biror mamlakatda paydo bo`layotgan g`oyalar misli ko`rilmagan tezlik bilan butun dunyoga tarqalmoqda.

Texnik va texnologik imkoniyatlarning kengayishidan turli yovuz kuchlar biror muayyan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy muhitiga olisdan, o`zoqdan turib ta'sir ko`rsatish, ijtimoiy-siyosiy muhitni izdan chiqarishga harakat qilishmoqda.

Dunyodagi yovuz niyatli, siyosiy harakat va kuchlar o`z ta'sir doirasini umumbashariy qadriyatlarga zid mafkura va g`oyalar orqali kengaytirishga tinimsiz harakat qilishmoqda. Ular kundalik faoliyatida esa vayronkor, tajovuzkor g`oyalarni o`zlariga qurol qilib olishgan. **(Ilova №6)**

2. “Milliy istiqlol g`oyasi” fanini o`qitishda ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, ta`lim tizimi ham milliy mafkura g`oyalarini hayotga tadbiiq etishda asosiy muhim vositadir. Zero, birinchidan, inson farzandi aynan ta`lim muassasalarida to`plangan ijtimoiy tajriba qadriyatlarini ilmiy asosda tizimli tarzda o`zlashtirib boradi. Ikkinchidan, ta`lim tizimi bosqichlari o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik tufayli g`oyaviy tarbiya jarayonida tadrjiiylik ta`minlanadi. Natijada insonning bilim doirasi ham miqdoriy boyib boradi. Uchinchidan, g`oyaviy bilimlar ta`lim jarayonining o`zida bevosita va to`g`ridan to`g`ri o`zlashtiriladi. Bularning barchasi yoshlarda g`oyaviy immunitetni shakllantirish va g`oyaviy tahdidlarning oldini olish uchun mustahkam zamin yaratadi. Faylasuf olim A.Ochildievning fikricha: «Ta`lim tizimi milliy tarix, madaniyat va an`analarini o`rgatish jarayonida boshqa xalqlarning shunday belgi va sifatlariga nisbatan ham hurmat bilan munosabatda bo`lishini tarbiyalaydi, ularni o`rganishga sharoit yaratadi. Bu ikki holat ya`ni o`z millatini sevish, boshqa millatlarga hurmat bilan munosabatda bo`lish insonda yagona insoniyatga daxldorlik tuyg`usini kamol toptiradi».²

Ilg`or g`oyalarni amalga oshirishning yana bir muxim sharti ularni o`zlashtirishi lozim bo`lgan ijtimoiy qatlam yoki guruhning bilim saviyasi, ma`lumotlilik darajasidir. O`zbekiston Respublikasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta`lim to`g`risida»gi qonun yoshlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan tarixiy hujjatlardir, ular har bir yoshning bilim darajasini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Agar o`smir yoki o`spirinda yoshlikdan kitobga, bilimga mehr shakllanmagan bo`lsa, uning bilimi sayoz, tushunchalari tor bo`lsa, u sog`lom g`oyani zararli g`oyadan, dunyoviylikni g`ayrilmiylikdan, ziyoni jaholatdan farqlay olmaydi. Goyaviy sog`lomlik har qanday g`aritariy fikrlarga munosib javob berishni, yot va zararli g`oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni, turli aqidaparastlar bilan asosli va tanqidiy munozara olib borishni, o`z nuqtai nazarining to`g`riligiga ishonch-e`tiqod tuyg`usini kamol toptirishni taqozo etadi.

1.A.Achildiev Milliy istiqlol g`oyasi – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. T., 2004. B.34.

Odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, ilg'or fikrlashga o'tish mafkuraviy yangilanishlar jarayonining muxim xususiyatidir. Ta'kidlash lozimki, inson o'zi uchun odatiy bo'lib qolgan fikrlash tarzidan osonlikcha voz kecholmaydi, chunki eskicha fikrlash bir qarashda qulay bo'lib ko'rinadi. Buni arifmetikadagi mantiq bilan algebradagi mantiq qoidasiga qiyoslash mumkin. Arifmetikani o'zlashtirgan bola algebradagi ayniyat, teoremlarni ruhan qiynalib qabul qilgani kabi, inson tafakkuri ham ijtimoiy hayot o'zgarishlarini birdan qabul qilolmaydi. Lekin yangi davr, yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari aynan tafakkur va fikrdagi o'zgarishlarni taqozo etadi va bu – rivojlanishning, taraqqiyotning asosiy tushuncha va tamoyillarining keng omma qalbi va ongiga singishi birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi. Bu – murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, bu jarayonda, boshqa ijtimoiy qatlam vakillaridan farqli o'laroq yoshlar tashabbuskorlik ko'rsatish va dunyoqarashi hamda e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir ko'rsatishi kerak.

Yoshlarning 50% hayoti maktabda o'tadi. Undan mafkuraviy tarbiya jarayonida unumli foydalanish, qolaversa tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish lozim bo'ladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida taxsil olayotgan yoshlar o'zgaruvchan fe'l atvorga ega bo'lib, bu o'tish davri xisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida yoshlar shaxs sifatida shakllangan bo'lib, mustaqil xayot kechiradi. Umuman butun mafkura va tarbiya jarayoni ommabop tarzda ko'rgazmalashtirilgan xolatda bo'lishi va bevosita kishilar ongiga singdirilishi kerak. xitoyliklarda «Men eshitaman va unutaman, ko'raman va tushunaman, bajaraman va eslab qolaman» degan ajoyib naql yuqoridagi fikrimizni tasdqlaydi.

Ijtimoiy munosabatlar murakkablashayotgan hozirgi davrda insonshunoslik ilmining ilmiy-amaliy natijalariga asoslanib, mafkuraviy munosabatlar ham takomillashdi. Targ'ibotning zamonaviy shakl va uslublari vujudga keldi. Mafkuraviy jarayondagi ana shunday yangiliklardan biri sosiologik targ'ibotdir. Bu tushuncha ilk bor ijtimoiy-falsafiy adabiyotga Jan Ellyul tomonidan olib kirilgan bo'lib, XX asr 80-yillari o'rtalaridan hozirgi rus faylasuflari bu masala tadqiqiga e'tibor bera boshladi.³

Sosilologik targ'ibotning bugungi hayotimizdagi muxim vazifasi mustaqillik

1. Iminov B. Manfaatlar siyosat va mafkura manbai. «Minxoj» nashriyoti, T., 2002. B.164.

g'oyasini yurtdoshlarimiz ongiga singdirish, ularni bir maqsad atrofiga jipslashtirishdan iborat bo'lmoqda. Bu funksiyani bajarishda ijtimoiy amaliyot va inson faoliyatining muayyan qirralari istiqbol ideali hamda strategik maqsad bilan bog'lash yo'llarini izlab topish muximdir. O'zbekiston Prezidenti o'z vaqtida to'g'ri ta'kidlaganidek: «Maqsadni belgilashdan ham maqsad sari olib borish uchun to'g'ri va oqilona yo'l va uslublarni tanlash vazifasi ming karra og'ir».⁴

Sosiologik targ'ibotlardan biri brlgan ommaviy axborot vositalari, fuqarolarimizda milliy mafkura g'oyalari orqali g'oyaviy immunitetga ega shaxsni tarbiyalashda muxim rol o'ynaydi. Chunki, ular birinchidan, ijtimoiy hayotdagi muayyan voqea, fakt, hodisa, muammolar yuzasidan axborotni etkazib berish orqali, uning jamiyat uchun muxim ahamiyatga ega ekanini, keng aholi qatlami uchun dolzarbligini unutmasligimiz lozim. Axborot oqimi hajman keng, mazmunan xilma-xil uzatilishga ko'ra tezkor bo'lgan bugungi kunda bu jarayon yanada chuqurlashib bormoqda. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari muayyan xabarni uzatish yoki biror bir g'oyaning mohiyatini ochib berish orqali uning o'zlashtirilishiga, kishilar ongida barqaror tasavvurlar, obrazlar, qadriyatlarning shakllanishiga ko'maklashadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy fikrga doimiy va izchil ta'sir o'tkazish, uni shakllantira olish imkoniyatiga egadir.

Hozirgi zamon kishisi ulkan axborotlar ummoniga ko'milgan paytga uzatilayotgan axborotlarning ob'ektivligi masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Axborotning ob'ektiv emasligi, bir tomondan, ularga ishonchsizlikning shakllanishiga, boshqa tomondan, noto'g'ri tasavvurning ildiz otishiga va jamiyatda kechayotgan jarayonlarning mohiyatini tushunmaslikka zamin yaratadi.

Ommaviy axborot vositalarining turli g'oyalarni tarqatish, kishilar ongiga singdirishdek ulkan imkoniyatlaridan millatlararo munosabatlar, unda kechayotgan jarayonlarga ta'sir o'tkazishda xam mohirlik bilan foydalanilmoqda. Mamlakatimiz xalqlari hayotida bo'layotgan o'zgarishlarga berilayotgan noxolis baholar buning isboti bo'la oladi.

Ommaviy axborot vositalarimizga nazar solaylik. Albatta, keyingi yillarga chuqur

2.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., «O'zbekiston». 1996.B. 202.

ma'noli yoshlarda katta qiziqish uyg'otgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga oid ko'rsatuvlar ko'payib bormoqda va bu ko'pchilikni quvontiradi. Lekin, televideniyaning ayrim kanallari orqali kechgi dasturlarda, urush, qon to'kilishlar, turli holatdagi jismoniy kuch ishlatishlar yoki butunlay mazmunan qashshoq filmlarni namoyish etish holatlarini tez-tez uchratib turibmiz. Chet elliklarga ixlos qo'yib, xatto ayrim san'atkorlarimiz ham bayram kechalari va dasturlarida ingliz tilida ashula aytish odatini chiqarib olishgan, xuddi milliy tilimiz o'z imkoniyatlarini sarflab bo'lganidek, o'z go'zalligini yo'qotib qolganidek.

Badiiy, siyosiy-huquqiy adabiyotning asosiy maqsadlaridan biri halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, kamtarlik, do'stlik, birodarlik, milliy totuvlik, rahm-shafqat, muruvvatlilik, bag'rikenglik, iymon-e'tiqodlilik, milliy g'urur va iftixor kabi milliy g'oyalarni mafkuraviy yo'l bilan mehnatkashlar ongiga singdirish, xalqqa etkazishga qaratilgandir. Xalqning ruhini ko'tarishda, O'zbekistonning bugungi va ertangi hayoti uchun qaratishga da'vat etishga adabiyot, san'at va musiqaning, sharqona odob-axloq maromlari qonun-qoidalari, xuquqiy me'yorlarning, asrlar osha yaratilib kelinayotgan maqollar va matallar, aruz va baytlarning, ertaklar va rivoyatlarning, she'rlar va dostonlarning, xullasi kalom, barcha nasriy va nazmiy asarlarning beqiyos, beo'lchov axamiyatini aytib ado qilib bo'lmaydi.

Ta'kidlash joizki, insonning murakkab ichki dunyosini, ruhiy holatini, kayfiyati, xis-tuyg'ulari, ma'naviy kayfiyatini, aks ettirishda san'atning hech qaysi turi badiiy adabiyotga tenglasha olmaydi. U o'zining ana shu jihatlari va imkoniyatlariga ko'ra, milliy mafkura g'oyalarining targ'ib-tashviqotida muhim o'rin tutadi. Badiiy adabiyotda insonning ijtimoiy munosabatlar majmui milliy qadriyat sifatidagi mohiyati ochiladi. U voqelikni qurug', hissiz, ehtirossiz aks ettirmaydi. Mustaqilligimizga xalaqit beradigan g'irromlik, yulg'ichlik, poraxo'rlik, ta'magirlik, tanish-bilishchilik, o'z vazifasini suiiste'mol qilish, mahalliychilik, beburdlik singari illatlar ustidan xalqning la'natini, salbiy munosabatini shakllantirishda badiiy adabiyot kuchli imkoniyatga ega.

Bugungi qilinayotgan ishlar, yutuqlarimiz haqida fikr yuritar ekanmiz, haligacha bartaraf etilmayotgan muammolar ham borligini ta'kidlash lozim. Afsuski, eski tizimdan qolgan asoratlar shaxsni tushunish va u bilan ishlay olish sohasida ham salbiy ta'sirini

ko'rsatayapti. Xuddi shu bois ham Prezidentimiz «Eng dahshatlisi – fikr qaramligi, tafakkur qulligi», degan nihoyatda dolzarb haqiqatni uqtiradi. Insonni ayniqsa, mo'rt yoshlarni fikriy qaramlikka solishning turli usullari bor. Bugungi kunda axborot erkinligi va demokratik hayot tarzi niqobi ostida yurtimizga kirib kelayotgan g'oyaviy tazyiqlarning son-sanoqsiz ko'rinishlariga duch kelish mumkin. Ulardan biri, ochiq-oshkora, qo'pol shaklda, ikkinchisi bo'lsa, nihoyatda pardalangan, holda namoyon bo'lmoqda. Bizningcha, milliy mafkuraning tamal toshi uyda, bog'chada, maktabda bolajonlarimiz qo'lga tushadigan o'yinchoqlar, kitoblar, o'quv qurollari bilan qo'yiladi. Bu gapni hamma narsani mafkuralashtirishga da'vat sifatida tushunmaslik aksincha ma'naviyatimiz milliy negizida shakllantirish yo'llaridan biri ekanini anglash ma'quldir.

Demak, birinchi sinf bolasi har kuni bir necha bor qo'lga oladigan «Alifbe» kitobining muqovasidan tortib, ichidagi har bir rasm, belgi, she'r va hikoyagacha uning xotirasiga umrbod mixlanib qolishini nazarda tutish lozim. Zero, yetti yoshgacha bola ongiga singdirilgan fikr umrbod uning hayot ma'nosini belgilash mumkinligini esda tutishimiz lozim. Mabodo kitob bezovchi rassomlarimiz uning sahifalarini milliy qadriyatlarimiz, ulug'vor obidalarimiz, buyuk mutafakkirlarimiz, aynan O'zbekistonimizga xos tabiatning go'zal manzaralari bilan bezasalar, hatto rasm va tasavvurlarda qadrdon milliy ruh ufurib tursa, murg'ak tasavvur qanchalar qimmatli narsani o'ziga jo qilar edi...

Milliy mafkuramizdagi eng muhim qoidalar va g'oyalarning hayotga joriy etib, katta ijtimoiy kuchga aylanishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati katta bo'lishini unutmashimiz kerak. R.Emerson aytganidek: «Taraqqiyotning chinakam belgisi – boylik emas, shaharning kattaligi emas, hosilning mo'l-ko'lligi ham emas, balki shu o'lka bag'rida tarbiya topgan inson qiyofasidir»

Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan ma'naviy va ahloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Hammasining zaminida oilada, umumiy ta'lim maktablarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiya tizimida yotadi.

Yurtboshimiz «Maqsadimiz – erkin shaxsni tarbiyalash»⁵ deganda har tomonlama mustaqil, o`zining va millatining qadr-qammitini teran idrok etuvchi, shaxsiy fikrlarini sobit turib himoya qila oladigan avlodni voyaga etkazishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, Sharq olimlari, shoiru adiblari mudom xalqning ijtimoiy ahvolidan boxabar bo`lib, zamonning yurt so`rovchi podsho va amaldorlarini adolatga, tarbiyaga chaqirib kelganlar. Behbudiy yashagan zamonlarda ham bu hol ko`zga tashlanadi. Zebo Ahrorovanig «Tafakkur» jurnali orqali «Urib engmadilar, o`qib engdilar» maqolasida Behbudiy xaqida shunday deb yozadi: «XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston milliy ozodlik harakati yetakchilaridan biri Muhammadxo`ja Behbudiyning tarbiyaga oid qarashlari va faoliyatida ta`lim bilan tarbiyani uyg`un, bir butun tarzda tushunishi ko`zga tashlanadi. Ul zot insonni jaholat va xurofot sari boshlovchi illatlarning bosh sababchisi – mustamlakachilik tuzumi davridagi ta`lim-tarbiya tizimiga xos bo`lgan yaroqsiz holatlarni fosh qilar ekan, milliy tafakkur va milliy an`analar umuminsoniy tajribalar vositasidagina kamol farzandlar tarbiyalamoq mumkinligini uqtiradi».⁶

Biz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir», degan fikrini ko`p mushohada qilishimiz, uni faoliyatimiz dasturulamaliga aylantirishimiz, mafkuramiz, umumiy yo`nalish mazmuniga jo etishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki buyuk ma`rifatparvarning bu so`zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muxim va dolzarb bo`lgan bo`lsa, hozirgi mafkuraviy ta`ziyqlar avj olib borayotgan davrda undan ham ko`ra muhim va dolzarbdir, deb hisoblaymiz. Eng muxim vazifamiz yoshlar tarbiyasini bugungi kun talablari darajasiga ko`tarish, uning samaradorligini oshirishdir. Tarbiyaviy ta`sirning yangi-yangi shakllari, vositalari va usullarini izlash muhimdir. Tarbiya ta`sirchanligi qanchalik kuchaysa, mafkuraviy yo`l bilan milliy g`oyalarini xalq, xususan yoshlar ongiga singdirish shunchalik tezlashadi.

Hozirgi sharoitda ma`naviy-ma`rifiy, ta`lim-tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish, barkamol avlodni shakllantirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko`tarish uchun nimalar qilish zarurligini aniq-ravshan tasavvur etish kerak.

Milliy mafkuramizning kuchi, asosiy mezonni xaqiqatdir, xaqiqatni taqib-tashviq

⁵ «Ma`rifat» gazetasi. 1998 yil 19 avgust.

⁶ Zebo Ahrorova. «Urib yengmadilar, o`qib engdilar». // «Tafakkur» jurnali.1994. 2-son.

etishdir. Haqiqat jarchisi bo`lmagan, xaqiqat uchun kurashmagan mafkura kuchli bo`la olmaydi, hayotda chuqur ildiz ota olmaydi, ommani orqasidan ergashtira olmaydi, ommaga kuch-qudrat ato etolmaydi. Shuning uchun Islom Karimov bunday deydi: «Yana shuni unutmaslik kerakki, mafkuraviy oziqning mezoni – haqiqat va faqat xaqiqat bo`lishi zarur. Ya'ni, xalqqa bor xaqiqatni ochiq aytib, shunga ko`ndirish, ishonchini qozonish va shu asosda uni yangi marralarga chorlash kerak».⁷

Mustaqillik har qanday odam, har qaysi oila, har qaysi jamoa, umuman yurtimiz, xalqimiz va kelajagimiz uchun nima berdi va nima beradi, degan masalani oddiy hayotiy misollar asosida kishilar ongiga etkazish, qalbiga singdirish orqali ularning dunyoqarashi va tafakkurini o`zgartirish ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy jabhadagi dolzarb vazifalar jumlasiga kiradi.

⁷ Karimov I.A. O`zbekiston milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. «Turkiston» gazetasi,

3. 8-sinfda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda interfaol usullar.

O'rta umumta'lim muassasalarida "Milliy istiqlol g'oyasi" fanini o'qitishda didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilish faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadga mos holda tanlangan o'qitish usullari yordamida tashkil etish demakdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan hamda muayyan tasnifga ega bo'ladi. Uning samaradorligi haqida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga solib, uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro faoliyatini ta'minlash asosida maktab (kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurtlari) oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'li erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Shu bilan birga, o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyadir. O'qitish metodi pedagog ongida dastlab faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro tutashuvi jarayonida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi.

Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, chunki umumiy holda o'qitish metodi faoliyatning didaktik modelini o'zida ifoda etadi. Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlarini faol va passiv guruhlariga ajratish mavjud. Agar har bir metod belgilangan muayyan maqsadni echishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir.

Amerikaning «Street law» ("Ko'cha qonuni") dasturi bugungi kunda ko'plab davlatlari tomonidan "asir"ga olingan va ta'lim jarayoniga o'rnashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolligi, jozibaligi va ta'sirchanligidir. Ular yordamida talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, jamoada ishlash, o'z mavqegini mustahkamlash, fikrlarini himoya qilish, haq-huquqlarini anglab etish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladi. O'qituvchi esa didaktik jarayonda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i. mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt muddatiga qarab o'zlashtirmog'i lozim. Quyida «Street law»

dasturidagi ba'zi metodlar bilan tanishasiz.

Klaster (axborotni yoyish) usuli

Bu usulning asosiy vazifasi o'rganilayotgan ob'ekt–o'quvchilar faoliyatini pedagogik voqelikni qismlarga ajratgan holda o'zlashtirishga yo'naltiradi, unda ko'p variantlilik asosida tushuncha hamda hodisalarning o'zaro ichki va tashqi bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantiradi, mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarni erkinlashtirishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha klasterlarni tuzish o'quv maqsadiga qarab bosqichma–bosqich harakatlanishni taqozo etadi, oxir–oqibatda yakuniy natija – yangi bilimlarni o'zlashtirish fikrlar xilma-xilligini yaxlitlash asosida qo'lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun sinf o'quvchilarini kichik guruhlariga ajratish talab etiladi. Har bir guruhda mavzuga oid alohida o'quv elementlari tanlanadi. Buning uchun auditoriyada darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari va boshqa axborot manbalari bo'lishi lozim. O'qituvchi alohida o'quv elementlarini o'zlashtirishi uchun 15–20 daqika vaqt ajratadi .

Klaster tuzish bosqichlari:

1. Auditoriya yozuv taxtasiga kichik guruhlar soniga qarab vatman (chizmachilik qog'ozi) osiladi va «kalit» so'zlar o'qituvchi (ayrim hollarda o'quvchilar) tomonidan yoziladi.

2. Mavzu bo'yicha o'quv elementlariga tegishli fikrlar (qonun, fakt, tezis, hodisa, jarayon, natija) aniq fe'l bilan ifodalangan holda qog'ozga yoziladi.

3. Asosiy tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi aloqadorlik chizmada ko'rsatiladi.

4. Kichik guruhlardagi barcha talabalar o'z variantlarini qog'ozga yozishadi.

5. Fikrlar «shajara»si umumlashtiriladi va yakuniy xulosalar qayd etiladi.

6. O'qituvchi talabalar faoliyatini nazorat qiladi va ob'ektiv baholaydi.

Misol uchun B.Blumning «O'quv maqsadi taksonomiyasi» mavzui bo'yicha klaster tuzish ketma–ketligini keltiramiz:

1. Blum taksonomiyasi aniqlangan o'quv faoliyati sohalari (O'E № 1):

–kognitivli (bilish) sohasi;

–affektiv (hayajonliqadriyatli) sohasi;

–psixomotorli sohasi.

2. Blum taksonomiyasini tuzishda tayaniladigan tamoyillar (O`E № 2);

–amaliy; psixologik; mantiqiy; ob`ektivlik.

3. Kognitiv soha bo`yicha o`quv maqsadlari taksonomiyasi (O`E № 3):

–bilish; anglash; qo`llash; tahlillash; sintezlash; baholash.

Bu misolda uchta "kalit" so`z keltirildi, ular, o`z navbatida, tegishli o`quv elementlarini qamrab olishi o`quvchilar tomonidan aniqlanadi. Har bir o`quv elementiga oid tushunchalar mazmunan ketma–ketlik saqlangan holda vatman qog`ozga yoziladi va fikrlar «yoyilmasi» chizmasi yaratiladi.

Sinkveyn (axborotni yig`ish) usuli

Metodni qo`llash jarayonida o`quvchilardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta–sekin bosqichma–bosqich yo`naltirilgan axborotli jarayonga aylantirib boriladi. Ya`ni, o`rganilmagan bilimlar mavzuni o`rganish davomida o`rganiladi, muayyan ob`ektiv voqelik to`g`risida yakdil fikrga kelinadi. Buning uchun o`quvchilarda besh imkoniyat mavjud bo`ladi. Ya`ni sinkveyn besh qatordan iborat o`ziga xos "oq she`r" (qofiyasiz) bo`lib, o`rganilayotgan mavzuga oid tushunchalar (hodisa, jarayon, voqea) qat`iyan ketma–ketlikda yozib chiqiladi. Sinkveyn orqali o`quvchilar o`z fikrlarini to`plash, ularni ixcham ifodalash, turli mulohazalarni sintezlash va mavzu bo`yicha to`g`ri xulosalarni takomillashtirishga o`rganishadi.

Sinkveyn tuzish tartibi:

1. Birinchi qatorda mavzuga oid bosh g`oya (tayanch tushuncha) bir so`z (ot) bilan qayd etiladi.

2. Ikkinchi qatorda bosh g`oya ikki sifat bilan ifodalanadi.

3. Uchinchi qatorda mavzuga oid tushunchalar (jarayonlar) uchta so`z bilan bayon qilinadi.

4. To`rtinchi qatorda mavzuga oid fikr (nazariya, fakt)lar to`rtta so`zdan iborat bo`lishi lozim.

5. So`nggi qatorga mavzu mohiyatini oydinlashtiriladigan (yoki ma'no jihatidan yaqin bo`lgan) bitta so`z yoziladi.

Bu ketma-ketlikni quyidagi chiziqlar yordamida loyihalash mumkin.

1. _____ topshiriq

2. _____

3. _____

4. _____

5. _____ natija

Odatda, sinkveyn mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyatni echish yoki alohida o`quv elementlarini mukammallashtirishda o`quvchi tafakkurini charxlash uchun tuziladi. Agar birinchi qatordagi mavzu so`z turkumi ot orqali ifodalansa, ikkinchi qatorda topshiriqning muhim xossalari belgilovchi bir juft sifatni o`quvchilar o`ylashi, ko`p variantli javoblardan eng maqbulini olishi lozim bo`ladi. Keyingi qatorlarga yoziladigan javob so`zlar ham o`quvchining tezkor fikrlashi natijasida topilib, ko`zlangan maqsad — yakuniy natijaga erishiladi.

"Aqliy hujum" usuli

Dars jarayonida «aqliy hujum»dan maqsadli foydalanish ijodiy, andozasiz tafakkurlashni rivojlantirish manbai hisoblanadi. "Aqliy hujum"ni uyushtirish sodda bo`lib, undan ta'lim mazmunini o`zgartirish jarayonida, ishlab chiqarish muammolari echimini topishda ham foydalanish mumkin. Dastlab guruh yig`ilib, ular oldiga muammo qo`yiladi. Bu muammo echimi to`g`risida ishtirokchilar o`z fikrlarini bildirishadi. Bu bosqichda hech kimning o`zgalar g`oyasiga «hujum» qilishi yoki baholashiga haqqi yo`q. Demak, "aqliy hujum"da qisqa vaqtda o`nlab g`oyalarning yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo`ladi. Aslida, g`oyalar soni maqsad emas, ular muammo echimi uchungina asos bo`ladi. Bu metod shartlaridan biri qatnashuvchilarning har biri tashqi ta'sirsiz faol ishtirokchi bo`lishi kerak.

Shunday qilib, "aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

olg`a surilgan g`oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga qilinmaydi;

-ish sifatga emas, songa qaratiladi, g`oyalar qancha ko`p bo`lsa shuncha yaxshi;

- istalgan g'oyani mumkin qadar mukamallashtirish va rivojlantirish mumkin;
- muammo echimidan g'oyalar ham qo'llabquvvatlanadi;
- barcha g'oyalarning asosiy mavzulari (farazlari) yozib olinadi;
- "hujum" vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutiladi.

Vazifasi. "Aqliy hujum" qiyin vaziyatdan qutulish choralarini topishga, muammoni chegarasini kengaytirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh (auditoriya) yanada jipslashadi.

Ob'ekti. Qo'llanish maqsadiga ko'ra, bu metod universal hisoblanib, tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), fikrni mustahkamlashda (o'z-o'zini boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli. "Aqliy hujum" ishtirokchilari muammo bo'yicha mulohaza-takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib olinadi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. «Aqliy xujum» tugagach, eng yaxshi takliflar birlashtirib, muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

Izoh. Siz amerikacha "aqliy hujum" metodi bilan qisman tanishdingiz (siz, ehtimol, oldindan tanishdirsiz). Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz xususida: **bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir.** Hali Amerika kashf etilmagan davrda o'z aql mash'alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimizni (Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) yoki yetti iqlimni zabt etgan shohu sultonlarimizni olasizmi, ular o'z muammolarini yechishda ana shu metoddan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni **"kengash", "mashvarat", "maslahat"** deb atashgan. Misol uchun, Sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni echishda mashvarat chaqirib barcha saroy ahlining, vaziru ulamolarning, farzandlarining fikrlarini o'rgangan va u asosda yagona hukm chiqargan. Bu holatlar harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratlarda ko'prok

namoyon bo`ladi. "Agar (g`anim ustiga) lashkar tortmoqchi bo`lsam, urush-yarashdan o`rtaga so`z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so`z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko`rardim, agar urushga moyil bo`lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko`rardim, qaysi biri foydaliroq bo`lsa, shuni ixtiyor qilardim". Bugun ana shular haqida o`yga tolib, "G`arb Sharqdan o`rgangan"ligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

"Ajurli arra" usuli

"Ajurli arra" metodi tuzilish jihatidan quyidagilarni o`z ichiga oladi:

**1.Topshiriqni bo`lish:** topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (mavzularga) bo`linadi.

2.Birlamchi guruhlar: guruh a`zolari mavzuni olgach, ekspert hisoblanadi.

3.Ekspert guruhlari: mavzuga oid o`quv topshiriqlari bo`lgan talabalar uni muhokama qilish, bajarish uchun ekspert guruhiga birlashadi.

4.Birlamchi guruxlar: talabalar o`z birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o`rganganlarini o`qitishadi.

Izox, "Ajurli arra" usuliga aniqlik kiritish uchun ba`zi tavsiyalarni yoritish lozim.

1.O`qitish jarayoniga bunday yondashilganda ularning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni o`zlashtirishlariga imkon tug`iladi.

2.Darsda muayyan faoliyatni bajarish uchun o`quvchilarga boshlang`ich axborotni uzatish zarurati tug`ilsa, uning o`rnini bosa oladigan boshqa materialdan foydalanish mumkin.

3.O`qituvchi murakkab mavzu bo`yicha o`quvchilarning har biriga mo`ljallangan axborotli alohida paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, gazeta, jurnal maqolalaridan tayyorlangan materiallar bo`lishi kerak.

4. Har bir talaba 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab "o`z uyi" (birlamchi) guruhiga, keyin esa "ekspert" guruhiga birlashib, o`quv elementlarini mustaqil o`rganishadi. Ekspert guruhini tashkil etish uchun axborotli paketlarda mavzuga oid materiallar bir xil rangdagi qog`ozlarga yoki rangli qalam bilan qog`ozning

burchagiga yozilgani ma'qul.

5. Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha o'quvchi (o'quvchi soniga qarab) bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi "o'z uyi"dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olishi kerak.

6. O'qituvchi o'quvchilarni "rangli" topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi, ular alohida mavzular bo'yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, "qizil"larni auditoriya xonasi oxirida, "ko'k"larni esa maktab yo'lakchasida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruhda 3 tadan kam o'quvchi bo'lmasligi kerak.

7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli materiallar to'plamini olishlari va ularni o'qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo'yicha ekspertga aylanishi lozim. Ular "ekspert" bo'lishi uchun o'quvchilarda vaqt yetarli bo'lishi kerak. Agar materiallar murakkab va hajman katta bo'lsa, ehtimol, to'liq bir dars soati talab qilinadi.

8. O'quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama qiling;
- bilmaganingizni birbiringizdan so'rang va har biringiz uni tushunganingizga ishonch hosil qiling;
- "o'z uyingiz" guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib materialning muhim o'quv elementlariga e'tibor qarating.

O'quvchilardan "o'z uy"lariga qaytishlarini so'rang. Har biri "o'z uyi" guruhiga axborot beradi. Shaksiz, "uy" guruhida ekspert guruhlaridan bittadan talaba bo'lishi shart. O'quvchi o'rganib kelgan materiallarni o'z guruhiga o'rgatishni olishi lozim. Bu jarayon o'quv materialining o'zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

9. O'quvchilar bir-birlaridan axborotni o'rganib bo'lishgach, o'qituvchi o'zi rejalashtirgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

"Munozara" usuli

Bu metod yordamida o'quvchilarga ma'lum mavzu bo'yicha axborot etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar "shturm" qiladilar, natijada, unga

oid ma'lumotni atroflicha o'rganiladi.

Munozarani o'tkazish metodikasi

1. Munozara olib boruvchi – boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni tanlab, ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'i qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad-muammo echimiga oid variantlarni ko'proq taklif etish;
- o'z bilimingizni umumlashtirib, e'tiborni muammo echimiga qaratib, fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;
- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham qo'llab quvvatlang;
- taklif etilganlarni baholash bilan keyinroq shug'ullanasiz.

3. Boshlovchi kotib tayinlaydi va u aytilgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar aniqlanib, munozarada barcha ishtirokchilar qatnashadi, o'z fikrlarini ifodalash imkoni beriladi. Agar biror kishi tomonidan uni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi uni xolisona hal qiladi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. Ishtirokchilar guruhlariga bo'linib, birinchi bosqichda bildirilgan g'oyalar mustahkamlanadi. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, ular tahlil qilinadi, natijada o'rta qo'yilgan muammoning echimiga oid bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

Izoh. Amerikacha munozara metodi turli shakllarda tashkil etilishi e'tirof etilgan. Bizning amaliyotda eng ko'p tarqalgan turi – "telemunozara" hisoblanadi, jurnalist Quddus A'zamning talabalar bilan telemuloqoti ana shu metodning o'zginasidir.

Teleshov usulidagi munozara afzalliklari: bu shaklda tashkil etish bir vaqtning o'zida guruhda ma'ruza va munozara metodlarini qo'llash imkoniyatini byoradi. 3–5 kishidan iborat bo'lgan guruh tanlangan mavzu bo'yicha boshqa qatnashchi (tomoshabin)lar ishtirokida munozara o'tkazadi. Tomoshabinlar muhokamada o'z fikrlarini aytib yoki savol bilan ishtirok etishadi.

Teleshou shaklidagi munozarada mavzu bo'yicha turli fikrlarni aniq ifodalashga imkoniyat tug'iladi. Albatta, bunda qatnashchilar puxta tayyorgarlik ko'rishlari yoki shu soha bilimdonlari bo'lishlari bilan asosiy mavzudan chetga chiqib ketmasliklari kerak.

Teleshouda har bir ishtirokchi o'z fikrini to'liq bayon qilishi uchun unga imkoniyat berish lozim (3–5 min). Boshlovchi munozarani kuzatib boradi, agar belgilangan mavzudan chetga chiqish hollari bo'lsa, munozaraga aralashishi mumkin.

"O'z o'rnini top" usuli

Agar auditoriyada muayyan mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa, mazkur metod yordamida muammo echimi aniqlanadi. Undan asosan darsning kirish qismida foydalanishadi, o'tilayotgan mavzu turli yondashuvlar mavjudligi aytiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilar fikrini bayon qilishi, o'zgartirishga imkon tug'iladi. Nihoyat, dars so'nggida o'qituvchi mavzuni o'zlashtirish darajasini baholaydi.

1. Auditoriyaning qarama–qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga "roziman", boshqasiga "rozi emasman", degan so'zlar yoziladi. Plakatlarda ba'zan mavzuga oid savollar bo'yicha qarama–qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin. Masalan: "anjir gullaydi va meva tugadi" yoki "anjir gullamasdan meva tugadi".
2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.
3. Talabalarga o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish taklif etiladi.
4. Talabalardan o'z qarashlarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa talabalarining hammasi jalb etiladi.
5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, talabalar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirishlari yoki boshqa guruhga o'tishlari mumkin. Bunday hollarda buning sababini asoslashlari kerak.
6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan talabalarni aniqlanadi.

«Menyu» usuli

Yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ishlashni xohlagan o`qituvchiga "Menyu" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (talaba)ga aniq topshiriq beriladi, Misol uchun, "Dinlararo bag`rikenglik g`oyasi". O`qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi:

I. Ibtidoiy dinlar. II. Milliy dinlar. III. Zardushtiylik. IV. Xristianlik. V. Islom.

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishadi, so`ngra guruh vakili o`qituvchi stoliga kelib, tayyor "Menyu"ni olib qaytadi. Bu uzun qirgilgan qog`oz – "tillar" bo`lib, ularda xilma–xil dinlar bayon qilingan. Guruh vakili «tillar»dan birini tanlab oladi va o`z guruhiga qaytadi. Boshqa o`quvchi ham shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig`ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu metodda javoblar og`zaki bo`lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o`qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab boradi.

"Debatlar" usuli

"Debatlar" asosida darsni tashkil etishdan asosiy maqsad muammo yechimini topishda o`quvchi o`z yondashuvining to`g`riligiga o`zgalarni ishontirishdir. O`z fikrini aniq va lo`nda bayon etish, buning uchun to`g`ri dalil va xulosa topish ko`nikmasini shakllantirishda "debatlar" samarali metod hisoblanadi.

Metodik tavsiyalar:

"Debatlar" mavzuni rezolyusiya shaklida ifodalashi kerak. Ma'lumki, rezolyusiya har doim mavjud holatni o`zgartirishni talab etadi.

Debatda o`quvchilar ikki guruhga ajratiladi: rezolyusiyani qo`llab-quvvatlovchilar va ularga qarshi chiquvchilar. Guruh sardori reglamentga rioya qilish kuzatuvchi – yordamchi tayinlaydi.

"Konstruktiv argumentlar" 3–5 holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o`quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning mohiyatini anglash va o`z fikrlarini mustahkamlash uchun mantiqiy argumentlar tayyorlashda o`qituvchi

yordam berishi kerak. Shu bilan birga, talabalar qarshi tomon bildirajak fikrlarni taxmin qilishlari va oldindan uni inkor etishga ham tayyorgarlik ko`rishlari lozim.

O`quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko`nikmasiga o`rgatish kerakki, bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o`rin qolmasin. SHundagina o`quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki o`z bilimi sinfdoshining bilimi oldida kam ekanligini tan olishga o`rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko`nikmalari shakllanadi.

"Debatlar"ni o`tkazish tartibi

1. O`qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. Qulay bo`lishi uchun rezolyusiyani qo`llab-quvvatlovchilar o`qituvchining o`ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashadi.

2. O`qituvchi muhokama mavzuini va rezolyusiya variantlarini bayon qiladi, so`zga chiquvchilar uchun vaqt belgilaydi.

3. O`qituvchi dastlab rezolyusiyani qo`llab-quvvatlaydiganlarga so`z beradi, undan konstruktiv argumentlarni bayon qilishni so`raydi. U o`z fikrini etarlicha dalillar yordamida asoslab beradi. Iloji bo`lsa, so`zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a`zolari uchun oldindan belgilash kerak. O`qituvchining yordamchisi so`zga chiquvchi uchun ajratilgan vaqt tugaganligini eslatib turadi.

4. O`qituvchi birinchi guruhning ikkinchi talabasiga so`z beradi, so`ngra ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli talabasi o`z fikrlarini rezolyusiya bo`yicha bayon qiladi.

Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.

5. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga qarshp tomonning dalillarini inkor etish va ular tanqidga javob berish jarayoni davom etadi.

6. Munozara davomida yangi dalillarni keltirish mumkin emas. Bahsni har doim rezolyusiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.

7. O`quvchilar bu bosqichda rezolyusiyaga nisbatan ma`lum mavqeni egallashni bayon qilishadi. O`qituvchi bu sabablarni auditoriya doskasiga yozishi mumkin. O`quvchilar bu sabablarga tegishli javob berishlari ham mumkin.

8. Debat dars so`nggida o`quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyusiyaning joriy etilishi natijasini baholashi kerak. Shuningdek, har ikki tomondan o`rtaga tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

Xullas, bu usullardan didaktik jarayonning qaysi bosqichida foydalanish kerak? Shubhasiz, mavjudlik algoritmidan (MA)-o`quvchilarning o`quv bilish faoliyatini tashkil etish, o`z ustida mustaqil ishlash, shuningdek, yakka tartibda kichik guruhlarda foydalaniladi. Ularni tanlash mezonlari esa o`qituvchiga ma'lum: mavzudan ko`zlangan maqsad, mazmunga moslashish, talaba va o`qituvchining imkoniyatlari, vaqt o`lchovi, mavjud o`quv–moddiy baza va boshqalar. Eng asosiysi, yakuniy natijani ta'minlaydigan va kafolatlaydigan pedagogik mezon yaratilishi lozim.

4. 8-sinfda “Milliy istiqlol g`oyasi”faniga oid mavzularni o`qitish bo`yicha dars ishlanmalar.

1-mavzu: Milliy g`oyaning tarixiy va falsafiy asoslari. 1 soat

Darsning maqsadi: G`oya va mafkuralarning falsafiy-tarixiy ildizlarini o`rganish asosida mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg`usini kamol toptirish.

Darsga oid jihozlar: 1. Plakatlar. 2. Markerlar. 3. Adabiyotlar.

Darsning blok chizmasi:

1. Tashkiliy daqiqa. 2. Guruhlarda ishlash. 3. Bahs-munozara. 4. Badiiy chiqishlar.

**Noan'anaviy amaliy mashg`ulot:** «Aqliy hujum» metodi bilan boshlanadi. **Izoh:** Chunki, o`quvchilarda yetarli bilim va ko`nikmalar mavjud. o`qituvchi buni «Aqliy hujum» orqali tasdiqlaydi va shundan so`ng sinfni guruhlariga bo`lib, ularga vazifalarini bajarishga ruxsat beradi. - «Aqliy hujum». Dorskaga bo`sh plakat ilinadi. o`qituvchi savol bilan murojaat qiladi.

-«Milliy istiqlol g'oyasi»ning falsafiy-tarixiy ildizlariga nimalar kiradi?

O`quvchilar javob bera boshlaydi, o`qituvchi esa bo`sh plakatga markerlar bilan javoblarni yozadi:

- Xalq og`zaki ijodi (dostonlar, ertaklar, maqollar, rivoyatlar).
- Madaniy meros va san'at asarlari, durdonalari (musiqqa, rasm, bino, buyumlar).
- Tarixiy asarlar (Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Yassaviy, Navoiy, Bobur kabi allomalarning ma'naviy merosi).
- Umuminsoniy falsafiy g`oyalar: Suqrot, Aflotun, Arastu va boshqalarning g`oyalari.
- O`qituvchi aqliy hujumni to`xtatgach, bu fikrlar to`g`ri ekanligini o`quvchilarga aytib, bugungi amaliy mashg`ulotda yuqorida aytilgan fikrlar yuzasidan bahs-munozara tarzida barchaning mustaqil fikr bildirishini so`raydi.

Shu maqsadda sinf o`quvchilari 4 yoki 5 guruhga bo`linadi. Har bir guruh stoliga

bahs mavzusi yozilgan kartochkalar qo'yiladi. (Izoh: Har bir o'quvchi mavzularni o'zi tanlash huquqiga ega va bu majburiy emas.)

Bular quyidagilar bo'lishi mumkin:

1.«Avesto» qanday asar? Erk va hurlik yo'lida jasorat ko'rsatgan qahramonlarimiz, xalq og'zaki ijodi namunalari milliy g'oyamizni shakllantirish uchun tarixiy asos bo'la oladimi?

2. Ajdodlarimiz ma'naviy-madaniy merosida adolatli jamiyat qurish masalalari qanday aks etgan? Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Navoiylarning ezgu g'oyalari, komil inson haqidagi qarashlari to'g'risida so'zlab bering.

3. Qadimgi Sharq, Yunon, Rim falsafasi, Suqrot, Aflotun, Arastu, Gegellarning qarashlari milliy istiqlol g'oyasining umuminsoniy asosi bo'la oladimi?

4. Jadidlarning ma'naviyatimizga, mustaqillik g'oyalari shakllanishiga qo'shgan hissalar nimalardan iborat? Sizning fikringiz.

2-guruhga badiiy sahna ko'rinishini ko'rsatish topshiriladi.

Bu guruh o'quvchilari sokin musiqa ovozi ostida Spitamen, To'maris, Manguberdi, Temur, Navoiy, Forobiy, Suqrot, Arastu kabi buyuk insonlarning ezgu g'oyalari ifodalangan g'azallar, asarlardan parchalarni jonli badiiy obrazda ijro etadilar. Jadidchilardan Fitrat, Cho'lpon she'rlarini ifodali tarzda o'qib beradilar.

Darsda o'quvchilar o'z mavzulariga javob berishdan oldin, qog'ozga markerlar yordamida mavzuning sxemasi (tarxi)ni chizib, taqdim etadilar. (Izoh: Plakat bo'lmagan taqdirda chizma sinf taxtasiga chiziladi. Amaliy mashg'ulot juda qiziqarli, sermazmun o'tishi, eng muhimi, birorta ham o'quvchi bundan chetda qolmasligi, har bir o'quvchining o'z hissasi va o'z o'rni bo'lishiga erishish lozim.)

1-guruh o'quvchilarining javoblari:

1-o'quvchi: Markaziy Osiyoda yashagan avlod-ajdodlarimizning g'oyalari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishda «Avesto» alohida ahamiyatga ega tarixiy asardir. Zardushtga qadar ajdodlarimiz har xil diniy odatlarga e'tiqod qilib yashaganlar. Diniy e'tiqodlarning turli-tumanligi qadimgi qabilalarning yagona mafkura asosida uyushishlariga to'g'anoq bo'lib qolgan. o'lkaning turli

qabilalarini birlashtirish, ularni ilk milliy davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zarurati tug'ilgan edi. Ana shunday zaruratni tushunib yetgan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht tarixda paydo bo'ldi.

2-o'quvchi: «Avesto»da o'lkamiz iqlimi, suvi, hayvonot dunyosi, diniy tasavvurlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari odamlarni doimo pokiza yurishga, yomon niyat va axloqsiz so'zlardan tiyilishga da'vat etiladi. Bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

3-o'quvchi: Asarda g'arazgo'ylik, hasad, manmanlik, yovuzlik qoralangan. Va'daga vafo, ahdga sadoqat, samimiyat, odamlar o'rtasidagi axloqiy g'oyalar ulug'langan. Avestoda «ezgu fikr», «ezgu so'z» va «ezgu faoliyat» chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan.

4-o'quvchi: «Avesto»da qayd etilgan eng muhim fikrlardan biri insonlarni mehnat qilishga, o'z qo'llari bilan moddiy boyliklar yaratib, farovon hayot kechirishga da'vatdir.

5-o'quvchi: Shunday qilib, «Avesto» dunyoda eng qadimgi dinlardan biri bo'lgan zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ajdodlarimiz uzoq o'tmishi, tafakkuri taraqqiyotining qomusiy yig'indisi, mafkuramizning tarixiy ildizi hamdir.

6-o'quvchi: Xalq og'zaki ijodi namunalari, azaliy san'at durdonalari istiqlol g'oyasining manbayi bo'la oladi. Avlod-ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlarini, an'analari, madaniyati xalq

og'zaki ijodida nihoyatda boy va xilma-xil aks ettirilgan. «To'maris», «Shiroq» singari afsona va «Alpomish» kabi dostonlarda ham milliy, ham umuminsoniy g'oyalar ilgari surilgan. Ulardan milliy istiqlol g'oyasi oziqlanadi, ularga tayanadi.

Ming-ming yillar davomida taraqqiy etib kelayotgan adabiyot va san'atning asosiy g'oyasi insonparvarlikdir. Milliy qahramonlarimizning erk va hurlik yo'lidagi qahramonliklari biz uchun ibrat bo'lib qolaveradi.

2-guruh o'quvchilarining javoblari:

1-o'quvchi: Adolatli jamiyat qurish g'oyasi doimo hamma jamiyatda ham

dolzarb bo'lib kelgan. Qadim zamonlardayoq insoniyatning eng yorqin namoyandalari bu muammoni to'g'ri hal qilishga uringanlar. Ular ta'limotiga ko'ra, odamlar bir-biri bilan do'st, teng, ozod bo'lishlari kerak edi. Bu kabi g'oyalar rivojida O'zbekiston hududida yashagan buyuk allomalarimizning xizmatlari katta.

2-o'quvchi: Bizning guruhimiz o'quvchilari bahs-munozara uchun, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi bobolarimizning ayrim fikrlarini yod oldik, hozir ularni sizning diqqatingizga havola etamiz. Masalan: Forobiy (870—950) butun dunyoning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, mashhur faylasufidir. Uning «Fozil odaifilar shahri», «Jamiyatni o'rganish haqida kitob», «Davlat arboblari haqida hikmatlar» kabi asarlari jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat kabi masalalarga bag'ishlangan. **3-o'quvchi:** Forobiy insonning jamiyatdagi harakatlarini 2 ga bo'lgan. Birinchisi: adolatli, haqiqiy aqlga muvofiq harakatlar. Alloma bu harakatlar orqali haqiqiy baxtga erishiladi, deb hisoblagan. Ikkinchisi: adolatsiz, maqsadga muvofiq bo'lmagan harakatlar bo'lib, ular baxtsizlik keltiradi. Men Forobiyning mana shu fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan deb hisoblayman, ular bunyodkor g'oyalar va buzg'unchi g'oyalarga o'xshab ketadi, deb o'ylayman.

4-o'quvchi: Men esa Forobiyning yana bir fikrini misol keltirmoqchiman. «Barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli, yetuk bo'ladi». Bundan ming yil oldin aytilgan bu fikrning bugungi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagani, aksincha, umuminsoniy qadriyatlar talabiga javob beradigan ezgu g'oyalar uyg'unligi ajdodlarimiz ma'naviy merosining ulug'ligi emasmi?

5-o'quvchi: Beruniy fikricha esa: «Kishilar o'zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirishlari uchun uyushgan holda yashashga majburlar». Uning fikricha, o'zaro yordam, bir-birlari bilan tinch-totuv yashash turli millatga mansub kishilarning hayotini mazmunli va barakali bo'lishiga olib keladi. Ibn Sino fikricha: jamiyatni davlatsiz, qonun-qoidalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu g'oya odamlarni o'zaro hamjihatlikka, bir-birlariga yordam ko'rsatish qoidalariga asosan yashashga da'vat

etadi. Muso Xorazmiyning jamiyat va uning istiqboli haqidagi fikr-mulohazalari bugungi kunda alohida o'rin egallaydi. Jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, odob-axloqning katta o'rin tutishi haqida aytilgan fikrlar, mening fikrimcha, mafkuramiz bulog'i bo'la oladi.

6-o'quvchi: Men esa ulug' bobomiz Sohibqiron Temurning davlat boshlig'i bo'lish bilan birga davlat ishlarini boshqarish, harbiy ishlarni tashkil etish, xalqparvar, adolatli bo'lish to'g'risidagi g'oyalariqa diqqatni qaratmoqchiman. Uning bu g'oyalari «Temur tuzuklari» asaridajamlangan. Masalan: «Kuch adolatdadir», «Adovat emas — adolat yengadi». Bobomiz Saltanat ishida 4 narsaga amal qilgan: 1. Kengash. 2. Mashvarat-u maslahat. 3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik. 4. Ehtiyotkorlik.

3-guruh o'quvchilarining javoblari:

1-o'quvchi: Tarixdan bizga ma'lumki, qadimgi Sharq, Yunon, Rimdagi qarashlar xalqlar taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Hatto ayrim vaqtlarda falsafiy fikrlar davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan. Dastlabki g'oyalar Sharqning eng qadimgi davlati Bobilda (eram.avval. IV ming yil.) paydo bo'la boshladi. Misr, Hindistonda «Izida va Osiris», «Gilgamish haqidagi doston», «Ramayana», «Mahabhorat» kabi bebaho yodgorliklarning har birida aql-idrok, adolat, insofdiyonat, halollik, mehnatsevarlik kabi g'oyalar, hikmatlar va rivoyatlar, maqollar orqali naql etilganki, ular shak-shubhasiz milliy hamda umuminsoniy ahamiyatga molik g'oyalarni ifodalaydi.

2-o'quvchi: Qadimgi Yunoniston olimlari ham jahon xalqlari madaniyatiga o'z hissalarini qo'shgan. Biz ulardan juda ko'plarini, masalan, Suqrot, Gcraklit, Demokrit, Aflotun, Arastu va hokazolarni bilamiz. Aflotun flkricha «g'oyalar dunyosi» birlamchi, moddiy dunyo esa ikkilamchidir. U Yunonistondagi quldorlar aristokratiyasi davlatini eng adolatli va ideal davlat deb hisoblagan. Arastu (milav. 384—322-yil) esa quldorlik davlatini tanqid qiladi, uning ko'rsatishicha, moddiy olam abadiy, u hech qanday g'oyalarga muhtoj emas. Ustoz va shogird bo'lgan bu ikki buyuk faylasufning qarashlaridagi bu keskin farq o'sha davrda ham turli g'oyalar bo'lganini ko'rsatadi.

3-o'quvchi: Men esa «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi Gegel (1770—1831) haqida quyidagi bir fikrni esladim. Uning ta'limoti hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Haqiqiy milliy xususiyatga ega bo'lgan Gegel ta'limoti Avstriya-Vengriya imperiyasidan ozod bo'lib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga yetgan. **4-o'quvchi:** Biz yuqorida aytib o'tgan ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shgan, deymiz. Ular mafkuramizning umuminsoniy asoslari bo'la oladi, degan fikrdamiz. Jadidlarning mamlakatimiz tarixi, milliy ma'naviyatimizga qo'shgan hissalarini qancha gapirsak ham oz. Bugun ikki jadidchi — Fitrat va Cho'lpon misolida ularning g'oyalarini ochib berishga harakat qilamiz.

5-o'quvchi: Vatanni ozod va obod, xalqni erkin, har qanday istibdod kishanlaridan xoli ko'rish Fitratning azaliy orzusi bo'lgan. U istiqlol uchun kurash, xalqni oyoqqa turg'izish milliy g'urur uyg'onishiga sabab bo'lishini bashorat qilib, bunday yozadi:

Oldimizni to'sgan bulut parchasi

Kuchli bir yel ko'rgach, yirtilar.

Umid kuni biz uchun ham tug'ar,

Qayg'urmagil sira ey, «Haq» tuyg'usi.

Fitrat «Yurt qayg'usi» nomli asarida «o'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'rgani kelganlarga», — deb mardona xitob etgan. Xalqimiz o'zining erta xazon bo'lgan bu donishmand farzandini qalbida abadiy saqlaydi.

Cho'lpon — yurt taqdiri, millatning istiqboli haqida chuqur qayg'urdi, elim deb, yurtim deb yonib yashadi. Vatanni muqaddas bildi, unga toabad sajda qildi, erkinlik, hurriyat, mustaqillik yo'lida jonini fido etdi.

O'qituvchi darsga yakun yasaydi, o'quvchilarni baholaydi, uyga vazifalar beradi.

2-mavzu: Yurt tichligi g`oyasi. 1 soat

Darsning maqsadi: O`quvchilarni yurt tichligi g`oyasi haqida mustaqil fikrlashga va o`z mulohazalarini qat`iyatli ifodalashga, shu orqali esa milliy g`oyamizning maqsad-mohiyatini to`g`ri anglashga o`rgatish.

Darsning shakli: Guruhlar taqdimoti (prezentatsiyasi).

Darsga oid jihozlar: Markerlar, flamaster, plakatlari, kerakli adabiyotlar.

Izoh: Marker va plakat bo`lmagan holda sinf taxtasi hamda bo`rdan foydalanish mumkin.

Darsning tuzilishi: -Tashkiliy daqiqa: -Yangi mavzu bo`yicha guruhda ishlash:

-Guruhlar taqdimoti: -Guruh ishining yakuni;-Darsga yakun yasash va uy ishi.

Noan'anaviy amaliy mashg`ulot bo`lganligi uchun dars haqida qisqacha ma'lumot:

- Bu dars maqsadini o`qituvchi oldindan (oldingi darsda) o`quvchilarga tushuntiradi.

- Maqsad: o`quvchilarning ijodiy izlanishi va o`z mustaqil fikrlarini bildirishi uchun imkoniyat yaratish.

- O`qituvchi shu maqsadda o`quvchilarning bilimlarini, qobiliyatlarini hisobga olib, guruhlariga bo`ladi.

Davranga murojaat: Kim qo`shimcha qiladi?

- Har bir guruh qaysi mavzuni keng yoritib berishi va uni taqdim etishi (prezentatsiya) nega kerakligi tushuntiriladi.

- Mavzu taqdimoti plakatga chizilishi yoki sinf taxtasiga (doskaga) yozilishi kerak.

- Guruhdagi 5—6 o`quvchining hammasi o`z fikrini bildirishi kerak.

- Har bir guruh o`z chizmasini sinf doskasiga ilib qo`yishi kerak.

- Boshqa guruhdagilar savol berish huquqiga ega.

- O`qituvchi dars so`ngida guruhlar ishiga yakun yasaydi va uy ishini topshiradi.

Diqqat! Ahamiyat bergan bo`lsangiz, birinchidan, darsda faqat o`quvchilar faol ishtirok etadi. Ikkinchidan, har bir guruh mustaqil fikrga ega bo`lib, o`z fikrini bayon qiladi va uni asoslashga harakat qiladi. Uchinchidan, dars jonli muloqot tarzida olib boriladi. To`rtinchidan, dars ko`rgazmalilik asosida tashkil qilinib,

o'quvchilar o'zi ishlagan qurol (4 ta chizma)dan foydalanadi.

O'qituvchi darsni boshqarib boradi.

Guruhlar va ularga beriladigan topshiriqlar :

1-guruh: El-yurtning shakllanishi.

2-guruh: Tinchlik tushunchasi.

3-guruh: Tinchlik yo'lida olib borilayotgan kurashlar.

4-guruh: Sivilizatsiyalar tarixida yurt tinchligi g'oyasining o'rni.

1-guruh taqdimoti: (Prezentatsiya) (sinf taxtasiga chizma ilinadi).

1-o'quvchi: Biz uzoq o'tmishda el-yurtning shakllanishini tushunishga va tushuntirishga harakat qilamiz. Bu mavzuni o'rganishda Prezidentimiz Islom Karimov asarlaridan, tarix, adabiyot darsliklardan foydalanish katta yordam berdi.

2-o'quvchi: El-bu o'zoq o'tmishda shakllangan kishilik jamoasidir. Uning oila, urug', qadila kabi tarixiy shakllari bor/

3-o'quvchi: Masalan o'zbek xalqi 92 qabiladan tarkib topgan. Har bir qabila alohida hududda ayrim hollarda bir hududda istiqomat qilgan.

4-o'quvchi: Hozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ular o'rtasida tinchlik, totuvlik, o'zaro yordam masalalarida mahalla alohida o'ringa ega.

5-o'quvchi: Prezidentimiz asarlariga nazar tashlasak, shu narsa aniq bo'ladiki yurtimizda yashayotgan barcha elatlarning teng huquqligi, ularning mehnat qilishlari uchun teppa-teng imkoniyatlar yaratib berilganligiga guvoh bo'lamiz.

2-guruh taqdimoti:

1-o'quvchi: Avvalo, tinchlikning nima ekanligini eslatmoqchimiz.

- tinchlik bebaho boylikdir.

- tinchlik o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirish tizimidir.

tinchlik barqaror rivojlanishi kafolatidir.

2-o'quvchi: Tinchlik g'oyasi qadimdan xalqimiz hayotida katta o'rin tutib kelgan. Qu'roni Karim, hadislarda tinchlik g'oyasi ko'plab uchraydi. U xalqlar o'rtasidagi do'stlik va totuvlikka xizmat qilgan. Hattoki ibtidoiy hayot davrida afsona ya rivoyatlarga asoslangan totemizm, animizm, fetishizm kabi din shakllarida

ham tinchlik g'oyasi bo'lgan.

Totemizm-ajdodlar ruhiga sig'inish.

Animizm-Ruhga sig'inish.

Fetishizm-fransuzcha-but, talisman ma'nosini bildiradi, jonsiz narsalarga, ularning tabiiy-mo'jizakor kuchiga ishonish.

3-o'quvchi: Keyingi besh ming yil mobaynida bashariyat o'n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshidan kechirganligining o'ziyoq tinchlikning muqaddas ne'mat ekanligini bildiradi. Shuning uchun tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bugun ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

4-o'quvchi: Tinchlik-barqaror, ya'ni bir maromdagi taraqqiyot, rivojlanish garovi. U bo'lmasa oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishishimiz qiyin kechadi.

5-o'quvchi: Xullas, inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalardan biri bo'lgan tinchlik g'oyasi doimo dolzarb bo'lib qoladi va har birimiz yurtimizda tinchlik-totuvlikni saqlash uchun hissa qo'shishimiz kerak.

3-guruh taqdimoti:

1-o'quvchi: Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch—bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. Bunyodkor g'oyalar insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi. Prezidentimiz afsus bilan ta'kidlaganlari kabi, tarix tajribasidan ma'lumki, inson tabiatida insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq.

2-o'quvchi: Men avvalo bunyodkorlik g'oyalari haqida gapirmoqchiman. Agar tariximizga nazar tashlasak, bunyodkor g'oyalar juda ko'p. To'maris, Shiroq kabi afsonalarda- umumiy g'oya, inson uchun jondan aziz hisoblangan muqaddas dargoh -Vatanning mustaqilligi uchun ajnabiy dushmanlarga qarshi murosasiz kurashish - oliy insoniy burch ekanligi kuylangan. «Avesto»da g'arazgo'ylik, hasad, fitna-fasod qoralangan, insonlarni ezgu g'oyalar yo'lida mehnat qilishga, o'z qo'li bilan moddiy boyliklarni yaratib, to'q, farovon hayot kechirishga da'vat etilgan. «O'rxun-Enasoy yodgorliklari»da el-yurtga muhabbat, bosqinchilarga qarshi nafrat

o'z ifodasini topgan. Bular bunyodkorlik g'oyalaridir.

3-o'quvchi: Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat tuzish, mamlakatni obodonlashtirish bilan bog'liq faoliyati ham bunyodkorlik g'oyalariga misol bo'la oladi.

4-o'quvchi: Afsuski, buzg'unchi g'oyalar ham mavjud. Bu g'oyalar xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltiradi. o'rta asrlardagi salb yurishlari, diniy fanatizm, fashizm, bolshevizm, va nihoyat, diniy ekstremizm, vahhobiylik kabilar g'ayriinsoniy g'oyalar bor va ularga qarshi kurash olib borishimiz zarur.

5-o'quvchi: Qanchadan qancha buyuk insonlar bu yovuz g'oyalarning qurboni bo'ldi. o'rta asrlarda G'arbda Galiley, Kopernik, Jordano Bruno, Sharqda esa Nasimiy, Mashrab, Nodira kabi hur fikrli zotlar qatl etildi. XX asrning turli yillarida ko'plab ziyolilar, keyinroq, 1999-yil 16-fevralda Toshkentda terrorchilik tufayli begunoh odamlar shahid ketdi. Ular yovuz g'oyalar bilan qurollangan aqidaparastlar, ekstremist qotillarning qurboni bo'ldi.

4-guruh taqdimoti:

1-o'quvchi: Prezidentimiz Islom Karimov 1998-yilda "Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblarida: «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», - degan edilar. Insoniyat yangi asr boshida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Biz buni sezib yashayapmiz. Bunday sharoitda o'zimizni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalashimiz lozim.

2-o'quvchi: Hozirgi vaqtda dunyoda turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Bu kurashdan ko'zlangan asosiy maqsad - inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Biz bu intilishlarni ham sezib turibmiz. Ularning yovuz maqsadlariga qarshi kurashamiz.

3-o'quvchi: Hozir jahonning olis bir burchagida qandaydir voqea sodir bo'lsa, zum o'tmay butun dunyoga ma'lum bo'ladi. Bizdan uzoq mintaqalarda ro'y berayotgan yaxshi va yomon ishlar, ularning ta'siri ham yashin tezligida yetib

keladi. Hattoki biror multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsad ifodalanadi. Demak, bugungi kunda turli yot g'oyalarni tarqatish yo'llari ko'p. Biz ana shunday paytda sezgir va ogoh bo'lishimiz lozim. Ularning ta'siriga berilmasligimiz kerak.

4-o'quvchi: Prezidentimiz g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish mumkin deganlar. Biz buni yaxshilab tushunib olishimiz kerak.

O'quvchilar takrorlashadi:

1. Tinchlik-bebaho boylikdir.
2. Yurt tinchligi xalq farovonligi kalitidir.
3. Millatlararo totuvlik qadrlash tinchlikni qadrlashdir.
4. Tinchlik o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir.

O'qituvchi darsni yakunlaydi. Har bir guruh va o'quvchini baholaydi. Maslahatlar va vazifalar beradi.

4-mavzu: Komil inson g'oyasi. 1 soat

Darsning jihozlanishi:

A) «Jamiyat mafkurasi» tushunchasi to'g'risida Prezident Islom Karimov tomonidan asoslangan fikr yozilgan didaktik material: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishiga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

B) Milliy g'oya tushunchasi xususidagi tamoyil yozilgan didaktik material: 1.«G'oya — inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy g'oya — inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir» («Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidan).

2. «Mafkura — muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir» («Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidan).

Darsning maqsadi:

A) Darsning ta'limiy maqsadi:

Dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuning talablaridan kelib chiqqan holda, Prezident Islom Karimov asarlari, ma'ruza va nutqlaridagi «milliy g'oya», «milliy mafkura», «komil inson», «fuqarolik mas'uliyati» kabi tushunchalar xususida atroflicha bilim berish. Bahs va munozaralar davomida shaxsiy e'tiqodlarida ezgu g'oyalar yo'lida tarbiyalanish tuyg'usini hosil qilishdan iboratdir.

B) Darsning tarbiyaviy maqsadi:

Dars jarayonida o'qituvchining mazkur mavzu yuzasidan olib boradigan ta'limiy, ilmiy-nazariy va amaliy faoliyati natijasida talabalar tarbiyasiga kompleks yondashgan holda ularda Prezident Islom Karimovning tarbiya bobida alohida qayd etib o'tgan quyidagi ko'rsatmalari o'z yechimini topishiga harakat qilinadi: «Oldimizga qo'ygan oliyjanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy

asoratlardan batamom xalos bo'lish, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalash, bunday tajovuzlarga qarshi turadigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda».

D) Darsda rivojlantirib boriladigan ta'lim:

O'rganilayotgan mavzu: «Milliy istiqlol g'oyasi» fanining yakunlovchi bo'limi bo'lganligi bois, kursning tayanch va boshqaruv g'oyalari hisoblangan tushunchalardan: «G'oya va mafkura tushunchalari», «Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi», «Mustaqil O'zbekiston va mafkuraviy muammolar», «Istiqlol g'oyasining maqsad va vazifalari» kabi masalalar yuzasidan talabalarning qanday bilimga ega ekanliklari yana bir bor sinab ko'riladi. Mashg'ulot davomida ularning faolliklarini rivojlantirib borish maqsadida o'rganilayotgan mavzu davomida talabalardan mazkur kursning yuqorida qayd etilgan asosiy tayanch va boshqaruv g'oyalaridan olgan bilimlarini eslatib, takomillashtirib va zarur joylarda o'zgartirishlar kiritib borish taqozo etiladi.

Mavzuni bayon etish rejasi:

1. G'oyaviy dunyoqarash nima?
2. Prezident Islom Karimov yoshlarning g'oyaviy dunyoqarashlari va ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish haqida.
3. Mustaqil tafakkur eta oladigan, har tomonlama bilimli, faol insonni tarbiyalash — mafkuraviy tarbiyaning asosidir.
4. Yoshlardagi to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish va jamiyatda sog'lom muhitni barpo etishda ularning mas'uliyatini oshirishning shakl va uslublari.
5. X u l o s a.

Darsning turi: Muammoli ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan noan'anaviy dars.

Darsning blok chizmalari:

A) O'qituvchi o'quv jarayonining har qanday tizimida ham 1—2 daqiqa vaqtini tashkiliy masalaga ajratishi tabiiy hol. Ana shu tashkiliy daqiqalarda mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatiladigan didaktik materiallar va darsda qo'llaniladigan ta'limning texnik vositalari foydalanish holatiga keltiriladi, yangi mavzu va uning

rejasi yozilgan vatman qog'ozdagi «ko'chma chizma» osib qo'yiladi.

Uy ishini tekshirish masalasiga kelsak, bu o'rinda o'qituvchi o'quvchilar uchun asosiy g'oyalardan bir nechtasini muammoli savol sifatida o'rta tashlaydi. Sinfning faollashuvi tashkil etilgach, masalan, «Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyalari nimalardan iborat?» yoki «Taraqqiyotning o'zbek modeli» deganda nimani tushunasiz? — degan savol o'rta tashlanadi. Bu savolga javoblarni olib bo'lgach, o'qituvchi uni umumlashtiradi va o'quvchilar diqqat-e'tiborlarini «ko'chma chizma»da bayon etilgan va o'rganiladigan mavzuning nomi va rejasiga jalb etadi.

D) Darsdagi keyingi bosqich — yangi mavzuni tushuntirish yoki darsning borishidir.

O'qituvchi mavzuni bayon etishga kirishar ekan, birinchi galda o'quvchilarga «Milliy istiqlol mafkurasini qanday xususiyatlarga ega bo'lishi va qanday talablarga javob berishi kerak» degan savollarga qisqa javob bermog'i lozim. Mazkur o'rinda Prezident Islom Karimovning «Fidokor» gazetasidagi fikrlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda yurtboshimizning istiqlol mafkurasini xususida bayon etgan fikrlarida yoshlarimizda istiqlol mafkurasini shakllantirib va tarbiyalab borishda «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson» tushunchalari markaziy o'rinni egallab turganiga e'tibor qaratiladi. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar diqqat-e'tiborini ana shu tushunchalarning izohiga qaratadi.

Istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta'lim tizimining o'rni, imkoniyatlari beqiyos. Ijtimoiy fan o'qituvchilari bu borada har bir o'quv yurtining yo'nalishini hisobga olgan holda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining asosiy mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirib borishga erishmoqliklari darkor. Bu borada mazkur kurs yuzasidan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning zehni va bilim darajalariga nisbatan individual ravishda yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi alohida olingan guruhda «Milliy istiqlol g'oyasi» fanidan o'rganilayotgan mavzu umumiy bo'lib, sinfdagi o'quvchilarning bilim darajalari turlicha bo'lgan bir sharoitda, shu guruhda milliy istiqlol g'oyasini singdirib borishda, ularda mavjud

bo'lgan ta'lim-tarbiya darajasiga yondashish jarayoni qanday amalga oshirilishi mumkin? Mazkur muammo xususida quyidagilardan foydalanish mumkin:

Birinchidan, o'quvchilar soniga mo'ljallab quyidagi muammoli savollardan iborat tarqatma didaktik materiallar (savollar) tayyorlash, ularning har birini kadaskop apparati yordami bilan doskada ko'rsatib (kadaskop bo'lmagan sharoitda oddiy doskadan foydalanib), o'quvchilarning og'zaki javob-bahslarini tinglash va keng muhokama qilish:

1. Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan — «G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» tamoyilini qanday tushunasiz?

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida maikura xususida gap boradi va uning mazmun-mohiyati nimadan iborat? 3. Mafkuraviy immunitet deganda nimani tushunasiz? 4. Tarix va ma'naviyat asoslarini o'rganish bu sohada qanday foyda beradi. 5. Adabiyot va san'atning u yoki bu g'oyani shakllantirishdagi o'рни xususida nimalar deya olasiz?

Ikkinchidan, dars jarayonida mavzu yuzasidan bahs-munozara uchun tayyorlangan barcha muammoli savollarga tegishli javoblarni eshitishga ulgura olmaslik ehtimoli borligi bois, ularga uy vazifasi tariqasida to'la javob yozib kelishlarini topshirish va keyingi darsda mufassal tahlil etish ham mumkin.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan savollarga o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarni umumlashtirar ekan, sog'lom dunyoqarashni shakllantirish uchun barcha mas'ul ekanligini alohida uqtirib o'tadi. O'qituvchi o'quvchilarni g'oyaviy-mafkuraviy va ma'naviy tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining o'рни xususida fikr yuritishi lozim. Buning uchun u albatta o'z tinglovchilarning oilaviy sharoitlari, ularni o'rab turgan ijtimoiy muhit xususida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa dars samaradorligini oshirib borishi va uning ta'sirchanligini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuni o'rganishda o'quvchilar quyidagi fikrlarni yod oladi: 1. «Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsad — ozod va obod jamiyatni barpo etishga erisha olmaymiz» (I. Karimov). 2. «Jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo'lmasa, o'z oldiga qo'ygan aniq bir maqsad-muddaosi bo'lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi.

Maqsad degani — xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq» (I.Karimov). 3. «Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi» (I.Karimov). 4. «Agar biz bugungi hayotimizga, bunyodkorlik ishlarimizga, erishayotgan yutuqlarimizga to'g'ri baho bermasak, ularning qadriga yetmasak, o'z hushyorligimizni yo'qotish, bizni har qadamda kutayotgan tahdidlarni, tinch turmushimizga, xavfsizligimizga rahna solayotgan, oyoq ostidan chiqayotgan har xil balo-qazolarni ham payqamay-sezmay qolishimiz mumkin» (I.Karimov).

O'qituvchi bu fikrlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib beradi, sinfga ilgari topshirilgan va dars davomida berilgan savollarning javoblariga qarab, o'quvchilarni baholaydi. Darsga umumiy yakun yasashdan oldin mustaqil tayyorgarlik uchun uyga vazifalar beriladi

6-mavzu: Millatlararo hamjihatlik g`oyasi. 1 soat.

Darsning maqsadi va vazifalari: Dars jarayonida o`quvchilar:

- Millatlararo totuvlik, milliy bag`rikenglik tushunchalarining mazmun-mohiyati bilan tanishadilar;
- Millatlararo totuvlik, bag`rikenglik g`oyasining tarixiy va huquqqiy asoslari bilan tanishadilar;
- O`zbekistonda milliy bag`rikenglik haqida bilim va tasavvurga ega bo`ladilar.

O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasida muammoning qo`yilishi:

Uslubi. Og`zaki bayon qilish, "Munozara" usulidan iborat.

Shakli. Nazariy mashg`ulot, muammoli ta`lim elementlarini o`z ichiga olgan no`ananaviy dars.

Vosita. I.A.Karimov asarlari, o`quv, ilmiy adabiyotlar, OAV materiallari.

Usul. Chizmalar asosida tayyorlangan slaydlar.

Mavzuni bayon etish rejasi:

- 1.Millatlararo totuvlik, milliy bag`rikenglik tushunchalarining mazmun-mohiyati.
- 2.Millatlararo totuvlik, bag`rikenglik g`oyasining tarixiy va huquqiy asoslari.
- 3.O`zbekistonda milliy bag`rikenglik.

Darsning asosiy tushuncha va atamalari:

Milliy g`oya, millatlararo totuvlik, milliy bag`rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, millat, millatchilik, polietnik davlat, monoetnik davlat.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., "O`zbekiston", 2008.
- 2.Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q, Toshkent., 1998.
- 3.Karimov I. A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent., "O`zbekiston", 2000.
- 4.Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent., "O`zbekiston", 1997.
- 5.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. Toshkent., "O`zbekiston", 2000.
- 6.Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. T.11. Toshkent., "O`zbekiston", 2003.
- 7.Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qa`tiy irodamizga bog`liq. T.12. Toshkent., "O`zbekiston",

2004.

8.Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. Toshkent., “O`zbekiston”, 2005.

9.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent., “Ozbekiston”, 2005.

10.Karimov I.A. O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi. Toshkent., “O`zbekiston”, 2005.

11.Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2008.

12.Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent., “Yangi asr avlodi”, 2001.

13.Jo`rayev N. Ma`kuraviy immunitet. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2000.

14.Saifnazarov I. Ma`naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. Toshkent., “Sharq”, 2001.

15.Saifnazarov I., Karimov T., Muxtorov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. Toshkent., “Yangi asr avlodi”, 2004.

16.Bekmurodov A.Sh. Ma`naviy-ma`rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. Toshkent., TDIU, 2005.

17.Muxtorov A. Shaxs tarbiyasida milliy g`oya, ehtiyoj va manfaatlar uyg`unligi. Toshkent., “Yangi asr avlodi”, 2003.

18.Ochildiyev A. Milliy g`oya va millatlararo munosabatlar. Toshkent., “O`zbekiston”, 2004.

19.O`zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo`lida. Toshkent., “Akademiya”, 2005.

20.Tulenov J. Milliy mafkura: maqsad va yo`nalishlari, hayotga tadbiq etish yo`llari. Toshkent., “O`zbekiston”, 2000.

21.Qurbonov M. Mafkura, ta`sirchanlik va uslub. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2000.

22.Milliy g`oya: targ`ibot texnologiyalari va atamalar lug`ati. Toshkent., “Akademiya”, 2007.

23.S.Mamashokirov, Sh.Tog`ayev. Erkin va farovon hayot qurilishining g`oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2007.

24.Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2000.

25.Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta`minlashning ayrim jihatlari. //Xalqaro munosabatlar, 2004, №1.

26.Globallashuv.Ommaviy madaniyat.Milliy g`oya. Maqolalar to`plami. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2009.

27.Ma`naviyat gulistoni. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari haqida suhbatlar. Toshkent., “Sharq”, 2002.

28.Azamat Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma`naviy qadriyatlar. Toshkent., “Muharrir”, 2008.

29.Shodmonqul Azizov., Sanobar Azizova. Ma`rifatparvarlik-ijtimoiy-madaniy hodisa. Toshkent., 2008.

30.Abduqahhor Ibrohimov. O`zbek mahallasi. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2007.

31.Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. Toshkent.,

“Sharq”, 2005.

32.Hamidjon Homidiy. Ko`hna Sharq darg`alari. Toshkent., “Sharq”, 1999.

33.Iso Jabborov, Sanjar Jabborov. Jahon dinlari tarixi. Toshkent., “O`zbekiston”, 2002.

34.Ma`naviyat yulduzlari. Toshkent, 1999.

35.Dinshunoslik asoslari. Toshkent., “O`zbekiston”, 1995.

36.Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi as-sahih. Toshkent., 1991-1992. 1-6 tom.

37.Zuhriddin Husniddinov. Islom va mahzablar. Toshkent., “Ma`naviyat”, 2000.

Kutiladigan natijalar:

**O`qituvchi.** Mavzuni talabalar faolligini oshirish orqali qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o`zlashtirishga erishish.O`quvchilarni- Millatlararo totuvlik, milliy bag`rikenglik tushunchalarining mazmun-mohiyati, millatlararo totuvlik, bag`rikenglik g`oyasining tarixiy va huquqqiy asoslari hamda O`zbekistonda milliy-diniy bag`rikenglik va dunyoviylik haqida yanada chuqurroq bilimga ega qilish. Ularning milliy totuvlik haqidagi bilim va fikrlash doirasini kengaytirish.

**O`quvchi.** Yangi bilimlarni egallaydi. Dunyoqarashi kengayadi. Olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishga o`rganadi. Millatlararo totuvlik, milliy bag`rikenglik haqida bilib oladi.

1.Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

2.Birinchi masala bayoni – 10 daqiqa.

3.Ikkinchi masala bayoni – 10 daqiqa.

4.Uchinchi masala bayoni – 10 daqiqa.

5.Mavzuni mustahkamlash va xulosalash – 6 daqiqa.

6.Talabalarni baholash – 4 daqiqa.

7. Uyga vazifa – 3 daqiqa.

Darsning borishi:

1.O`qituvchi 2-3 daqiqani tashkiliy masalalarga ajratadi. O`quvchilarning darsda ishtiroki, o`quv xonasining tozaligi tekshiradi, mavzuga oid ko`rgazmali qurollar, didaktik materiallar va darsda qo`llaniladigan texnik vositalarni foydalanish holatiga keltiradi. Yangi mavzu va uning rejasi yozilgan vatman qog`ozidagi

“ko`chma” chizma osib qo`yiladi yoki o`quv taxtasiga yoziladi.

2. O`qituvchi ushbu mashg`ulotni “Munozara” usulida o`tkazishi maqsadga muvofiq. Bu usul yordamida o`quvchilarga ma`lum mavzu bo`yicha axborot yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni talabalar “shuturm” qiladilar, unga oid ma`lumotni atroflicha o`rganadilar.

Boshlovchi (o`qituvchi) ishtirokchilarga “Munozara” usuli qoidalarini tushuntiradi:

- “munozara”dan maqsad-muammo yechimiga oid variantlarni ko`proq taklif etish;
- o`z bilimingizni umumlashtirib, e`tiborni muammo yechimiga qaratib, fikrlar bildiring. Bildirilgan g`oyalar umumiy qoidaga zid bo`lsa-da, hech biri rad etilmaydi;
- boshqa ishtirokchilar g`oyalarini ham qo`llab-quvvatlang;
- taklif etilganlarni baholash bilan keyinroq shug`ullaniladi.

Boshlovchi kotib tayinlaydi va u aytilgan barcha g`oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so`zga chiquvchilar aniqlanib, munozarada barcha ishtirokchilar qatnashadi, o`z fikrlarini ifodalash imkoni beriladi. Agar biror kishi tomonidan uni o`tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi uni xolisona hal qiladi. Birinchi bosqich yangi g`oyalar paydo bo`lgunga qadar davom etaveradi.

3.Boshlovchi seminar mashg`ulotining 1-masalasi haqida munozara boshlashni talabalardan so`raydi. Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag`rikenglik tushunchalarining mazmun-mohiyati haqida o`quvchilar fikr almashib, munozara qiladilar.

4.Boshlovchi 1-masalani xulosalab, o`z qarashlarini qisqacha izohlaydi.

5.O`quvchilar 2-masala yuzasidan munozara boshlaydilar. Unda talabalar millatlararo totuvlik, bag`rikenglik g`oyasining tarixiy va huquqqiy asoslari haqida fikr almashadilar.

6.Boshlovchi 2-masala haqida o`z fikrini xulosa tarzida ifodalaydi va 3- masala yuzasidan munozaraga chorlaydi.

7.O`quvchilar 3-masala yuzasidan munozara boshlaydilar va O`zbekistonda milliy-diniy bag`rikenglik va dunyoviylik haqida munozara qiladilar.

8.Boshlovchi o`tilgan mavzu yuzasidan o`z fikr mulohazalarini umumlashtiradi va darsni xulosalaydi.

9.O`quvchilar baholanadi uy vazifasi beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 8-sinfda “Milliy istiqlol g`oyasi” fanini o`qitishda, uni o`quvchilar ongi va qalbiga singdirishda vatanimizdagi tajribali murabbiylar va chet el mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan o`qitish metodlarini yanada takomillashtirib, mavzularning o`quvchi tomonidan oson o`zlashtirib olinishiga erishish uchun har bir o`qituvchi o`z metodiga ega bo`lishi va uni targ`ib qilishi lozim.

Xulosa

Barkamol avlod shaxsni voyaga etkazish, tarbiyalash va uni shakllantirish XXI asrda va kelajak asrning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimovning nutq va ma'ruzalarida mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida ma'naviy - mafkuraviy jarayonlarning o'rnini, barqarorlik, fuqorolararo, millatlararo totuvlik, milliy birlik, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy tarbiya masalalari, ichki va tashqi mafkuraviy tahdidlar mavzusi, odamlar tafakkurida turlicha kechayotganligi, diniy va kommunistik aqidaparastlik muammolar qatorida ekanligini qayta-qayta ta'kidlamodalar. Bu muammolarni echimini hal qilishda milliy tarbiyani yuksaltirish, ma'naviyat va mafkuramizni yuksak bosqichlariga ko'taradigan milliy g'oya, mafkura g'oyalarini rivojlantirishda ta'lim muassasalari faoliyatlarini ham yuksaltirishga katta e'tibor berish lozim. Shunga ko'ra, biz ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ta'limni tarbiya bilan uzviy bog'lash va talaba-yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash usullaridan keng foydalanish imkoniyatlari haqida ushbu birituv malakaviy ishda so'z yurtishga harakat qildik.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxs milliy modelimizning asosiy tashkil etuvchisi sifatida belgilangan bo'lib, unga nisbatan qo'yiladigan talablarning amalga oshirilishi ta'lim islohotlarining pirovard natijasini belgilab beradi. o'z navbatida mazkur hujjatda shaxsning ijodkorligi va intellektual qobiliyatlari barkamollikning asosiy belgilari sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqadigan asosiy vazifa uzluksiz ta'lim tizimida shaxsda ijodkorlik va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish orqali uning barkamolligiga erishishdan iborat.

Bu vazifani amalga oshirish yo'nalishida bugungi kunda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, modulli texnologiyalar va interfaol metodlar kabi juda keng miqyosdagi majmualar mavjud. Biroq shu paytgacha amalga oshirilgan izlanishlarda tadqiqot muammosini o'zining to'laqonli echimini topmagan. Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan mazkur tadqiqot jarayonida barkamol shaxs to'g'risidagi tushunchalarni umumlashtirib, uning

yagona strukturasini ishlab chiqish, bu jarayonni boshqarishning axborot ta'minoti texnologiyasi asoslarini ishlab chiqishni ko'zda tutganmiz.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini isloh qilishdan maqsad shaxs barkamolligiga erishish, uni bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda o'z o'rniga ega inson sifatida tarbiyalashdan iborat. Shaxsni ushbu talablar asosida shakllantirishning eng maqbul yo'liga undagi ijodkorlik va intellektual sifatlarni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya texnologiyalarini joriy etish, o'quvchi-talabaga majburiy tarzda bilimlarni berish emas, balki ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish hamda rag'batni yuzaga keltirish, ularning mustaqil, erkin harakat qilishlariga imkon yaratish, ijodiy fikrlashga undash, ta'limiy faolliklarini yuzaga keltirishga yo'naltirilgan pedagogik-didaktik faoliyat sanaladi.

Demak, ta'lim jarayonini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligi ushbu jarayonda tarbiya tamoyillari hamda ta'lim metodlarining uyg'unligini ta'minlash asosida kechadi.

Shu munosabat bilan, ta'lim muassasalarida gumanitar muhitning shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedralarning o'rnini katta ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Ular bu borada ta'limning ilg'or va samarali shakllarini, uslublarini dadil va jadal ravishda joriy etmoqlari va keng yoymoqlari lozim. Jumladan, talabalar guruhlarini yoki ayrim bir talaba uchun mo'ljallangan differensial - farqli ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish va ulardan ta'lim jarayonlarida foydalanish, ta'limning «dumaloq stol», «matbuot anjumani», simpozium, «ish o'yinlari», referat himoyasi, bahs-munozaralar, etakchi olimlar va mashhur kishilar bilan uchrashuv, muloqot uyushtirish kabi shakllarini keng qo'llash.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilari o'quv ishlarining samaradorligi, ularning tabiiy-ilmiy va ixtisoslik fanlar kafedralari bilan, shuningdek oliy o'quv yurtining rahbariyati va boshqa barcha bo'lim va qismlari faoliyati bilan qay darajada aloqadorligiga ham bog'liqdir.

Talabani barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarining ta'lim muhitini insonparvarlashtirish bilan chambarchas bog'liqligi va aloqadorligi masalasi o'quv jarayonining butun mazmuni va mohiyatini belgilaydigan muhim vazifadir. Ta'limda tarbiyaviy ta'sirning muhim xususiyati uning umuminsoniy madaniyatning asosiy tamoyillari va qadriyatlari bilan aloqadorligidadir. Predmet orqali tarbiyalash talaba shaxsining shakllanishi va taraqqiy etishiga maqsadli yo'nalish va aniqlik baxsh etadi:

a) jamiyatni va oliy maktabni isloh qilish natijalari bamaslahat, kengashib ish qilish, tadbirkorlik va tashabbuskorlik, mas'uliyat, talabchanlik kabi demokratik tamoyillarining amalga oshishi uchun muhim zamin tayyorlaydi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik shakllanish va ta'lim muassasalarida buning uchun qulay sharoitni vujudga keltirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi;

b) ijtimoiy-madaniy sohaning tarkibiy qismlari bo'lgan kutubxona, o'quv va o'quv-uslub xonalari, sport-sog'lomlashtirish majmualari, talabalar yotoqxonolari, oshxona va bolalar muassasalari, bozor iqtisodi munosabatlariga o'tish sharoitida, o'quv yurtida qulay ijtimoiy-psixologik sharoitni yuzaga keltirishning muhim va belgilovchi omiliga aylanadi.

Gumanitar muhitni vujudga keltirish va ta'limni insonparvarlashtirish ishlarida hozirgi vaqtda ba'zi bir ta'lim muassasalarida ayrim salbiy holatlar ham ko'zga tashlanadi: o'qituvchilar muhitidagi moddiy sharoitning va faoliyatning nisbatan qiyinlashuvi oqibatida kelib chiqayotgan muayyan taranglik, xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlarining hozirgi zamon talablari darajasida emasligi, talabalar orasida mustaqil bilim olishga intilishning sustligi, yoshlar orasida madaniy va ilmiy bilimlarni egallashdan ko'ra faqat bugungi, tor manfaatlarni ko'zlab, moddiy foyda orttirishga intilishning tobora ustunlik qilayotganligi, ba'zi bir yosh mafkuraviy ta'sirlarga, milliy-ahloqiy me'yorlarimizga zid qarashlarga, oz bo'lsa-da, berilib qolishi kabilar.

«Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, jamiyatni ma'naviy yangilashning zamonaviy va istiqboldagi talablari, ayniqsa o'sib kelayotgan avlodning ongiga noinsoniy, ekstremistik mafkuralarni singdirishga urinishlar

kuchaygan hozirgi paytda yaxlit tarbiyaviy tizimni tashkil etish va rivojlantirish lozimligini taqazo etmoqda»¹.

XXI asrda tarbiyaning idealistik, pragmatik, realistik, antroposentristik, erkin tarbiya, gumanistik va texnokratik modellariga amal qilinmoqda. Mazkur tizimni amalga oshirishda ushbu modellarning ijobiy jihatlarini milliy tarbiya xususiyatlari bilan uyg'unlashtirib foydalaniladi.


Davlat va jamiyatimiz oldida turgan hozirgi maqsadlar bilan boshlanuvchi ijtimoiy pedagogik buyurtmadan kelib chiqqan holda, uzluksiz tarbiya tizimi mazmuniga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiritiladi:


vatanparvarlik tarbiyasi	axloqiy tarbiya
mafkuraviy tarbiya	iqtisodiy tarbiya
fuqarolik tarbiyasi	jismoniy-gigienik tarbiya
ekologik tarbiyasi	kasbiy tarbiya
tarixiy tafakkur tarbiyasi	milliy g'urur tarbiyasi
jamoaviylik tarbiyasi	oilaviy tarbiyasi
huquqiy tarbiya	diniy bag'rikenglik tarbiyasi
baynalmilal tarbiya	badiiy-estetik tarbiya
intellektual tarbiya	mehnat tarbiyasi

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy islohotlar talabidan kelib chiqib yo'nalishlar boyita boriladi. Hukumatimizning yoshlar tarbiyasiga doir qarorlari, me'yoriy hujjatlari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning xususiy dasturlari ham ishlab chiqib, joriy qilinadi.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 8-sinfda "Milliy istiqlol g'oyasi" fanini o'qitishda, uni o'quvchilar ongi va qalbiga singdirishda vatanimizdagi tajribali murabbiylar va chet el mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan o'qitish metodlarini yanada takomillashtirib, mavzularning o'quvchi tomonidan oson o'zlashtirib olinishiga erishish uchun har bir o'qituvchi o'z metodiga ega bo'lishi va uni targ'ib qilishi lozim.

1.Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Barkamol avlod: tarbiya tizimining mas'uliyati. //Xalq so'zi. 2005 yil 6 sentabr.







3-chizma




4-chizma



5-chizma



6-chizma



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Karimov.I.A. Hushyorlikka da'vat. O'zbekiston Milliy axborot agentligi muhbirining savollariga javoblar., T., «O'zbekiston», 1999.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T., 1997.
- 3.Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. T.? «O'zbekiston», 1995.
- 4.Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., "Sharq", 1997.
- 5.Karimov I.A.O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1999.
- 6.Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar(qisqa izohli tajribaviy lug'at) O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, T., «Yangi asr avlodi», 2002.
- 7.M.SHarifxo'jaev.O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar.T., «Sharq», 2004.
8. E. Vohidov "Hikmatnoma". T., 1990.
9. Sh.Qurbonov. Mustaqillik poydevori. //Xalq ta'limi. 2003, № 5.
- 10.Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq». 1998.
- 11.O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish: (Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi). T., «Sharq», 2000.
12. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari. T., 1998.
13. Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. T., 1996.
14. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. –T., «O'qituvchi», 1996.
- 15.Quranov M. Yoshlarni milliy mafkuraviy tarbiyalash – texnologik masala. // «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash shakl va usullari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T., 2001.
- 16.“Pedagogika” darsligi, prof. A.Munavvarovning tahriri ostida, o'quv qo'llanma. T., “O'qituvchi”, 1996.
- 17.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildli.T., «O'qituvchi», 1999.
- 18.Davletshin M.G. va boshqalar. qobiliyat va uning diagnostikasi. T., «O'qituvchi», 1997.
- 19.Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. -M.: Pedagogika, 1991.
- 20.Mahkamov U.I. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. T., «Fan», 1995.
- 21.Yusupov E.Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., 1998.
- 22.Bo'ri Ziyomuhammadov. Ilm hikmati. T., “Tibbiyot”, 1999.
- 23.Abdullaeva M. O'smirlarni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlashningning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari (milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitish misolida). T., 2004.
- 24.Ibodullaeva O.N. Kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. 2004.

25. Iragimov X. va boshqalar. "Pedagogika" pedagogika institutlari uchun uslubiy qo'llanma. NavDPI, 2004.
26. Jumaeva N.E. Umumiy o'rta ta'limni insonparvarlashtirishda o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligi. Qarshi, 2005.
27. Ibragimova G.X. Kasb ta'limida talaba yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyasi asosida shakllantirish. ToshDPU, 2005.
28. Mirzalimov B.Sh. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari (Kamolot yoshlarning ijtimoiy harakati faoliyati misolida). T., O'zPFITI, 2005.
29. Ismailova Z.Q. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental metodik asoslari (milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar asosida). Tosh., 2006.
37. SH.Qurbonov, E.Seytxalilov. Barkamol avlod: tarbiya tizimining mas'uliyati. Xalq so'zi 2005 yil 6 sentyabr.
38. B.Ziyomuxammadov. Komillikka eltuvchi kitob. "Turon-iqbol nashryoti", Toshkent, 2006.

Internetdan foydalanilgan axborotlar ro'yxati

Vozmojno, vy imeli v vidu: [Barkamol shaxsiy tarbiyalash](#)
[INFOCOM](#)

Barkamol, har tomoonlama rivojlangan **shaxsni tarbiyalash** muammosi ta'lim tizimidan ... **Barkamol shaxsni tarbiyalash** g'oyasi milliy mustaqillikning ustuvor ...
[uz.infocom.uz/more.php?id=112_0_1_0_M - 22k](#) - [Soxraneno v keshe](#) - [Poxojie stranisy](#)

[INFOCOM](#)

... **barkamol shaxsni** shakllantirish bilan shug'ullanuvchilarining zimmasiga ... aytilgan olimlarning fikricha **shaxsni** ijtimoiylashtirish va **tarbiyalash** ...
[uz.infocom.uz/more.php?id=120_0_1_0_M - 26k](#) - [Soxraneno v keshe](#) - [Poxojie stranisy](#)

[[Dopolnitel'nye rezul'taty s uz.infocom.uz](#)]

[Luchshiy rasskaz ili sochinenie - Children Forum](#)

Barkamol, har tomoonlama rivojlangan **shaxsni tarbiyalash** muammosi ta'lim tizimidan yosh avloddan faqat milliy madaniyat yutuqlarini emas, balki umuminsoniy ...
[www.connect.uz/children_forum/index.php?s=&showtopic=850&view=findpost&p=40964 - 156k](#) - [Soxraneno v keshe](#) - [Poxojie stranisy](#)

[Gov.uz – Yangi qonun loyihalari O'zbekiston siyosiy tizimiga ...](#)

Mamlakatda rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etish, milliy mafkurani shakllantirish, **barkamol shaxsni tarbiyalash**, jamiyatda millatlararo totuvlikni ...
[www.gov.uz/ru/content.scm?contentId=24973 - 19k](#) - [Soxraneno v keshe](#) - [Poxojie stranisy](#)

[Nizomiy nomidagi TDPU](#)

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlar **Barkamol shaxsni** shakllantirish

borasida ... **barkamol** avlodni **tarbiyalash** borasida malakali professor-o`qituvchilar ...

www.tdpu.uz/index.php?a=11112 - 58k - [Soxraneno v keshe](#) - [Poxojie stranisы](#)

TARBIYA VIY IShLAR USLUBIYO TI fanidan DASTUR

Format fayla: PDF/Adobe Acrobat - [V vide HTML](#)

Shaxsni o`z-o`zini takomillashtirishi maqsadida **tarbiyalash**.

Insonparvarlik tarbiyasi. Yashay olishni ta`minlash maqsadidagi tarbiya.

Barkamol avlodni ...

el.tfi.uz/pdf/ti2kt_uzl.pdf - [Poxojie stranisы](#)

Uk,uv jar-ayonida texnika i-ositalari v a C

Format fayla: PDF/Adobe Acrobat

va **barkamol shaxsni** shakllantirish konsepsiyasi» va «Kadrlar tayyorlash bo` ... **Shaxsni tarbiyalash** va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ...

el.tfi.uz/pdf/buhmquq_uzl.pdf - [Poxojie stranisы](#)

[[Dopolnitelnyye rezultaty s el.tfi.uz](#)]

Pedagog.uz

... hisobga olgan holda ijodkor **shaxsni** shakllantirish; - insonni

barkamol tarbiyalash jarayonining unga turli axborotlarni

«tiqishtirishdan» ustuvorligi; ...

www.pedagog.uz/konf.php?showart=22 - 37k - [Soxraneno v keshe](#) -

[Poxojie stranisы](#)

TARBIYA SAHIFASI

Mamlakatimizni rivojlantirishning yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarida **shaxsni** hamma tomonlama rivojlantirish **tarbiyalash** ustuvor ...

www.pedagog.uz/tarbiya/tarbiya.php?tek=3 - 11k - [Soxraneno v keshe](#) -

[Poxojie stranisы](#)

Ministerstvo yustisii Respubliki Uzbekistan: "Inson va Qonun ...

Demakki, **barkamol** avlodni shakllantirmagan yurtning kelajagidan umid qilish ... xullas, **barkamol shaxsni** kamol toptirishdek aniq maqsad belgilab olindi. ...

www.minjust.uz/ru/gcontent.scm?groupId=4146§ionId=11887&contentId=1

1906 - 19k - [Dopolnitelnyy rezultat](#) - [Soxraneno v keshe](#) - [Poxojie stranisы](#)

Mundarija

Kirish	3
Milliy istiqlol g`oyasini o`quvchilar ongiga qay tarzda singdirilayotganining amaliyotdagi ahvoli.....	5
“Milliy istiqlol g`oyasi” fanini o`qitishda ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish.....	15
8-sinfda "Milliy istiqlol g`oyasi" fanini o`qitishda interfaol usullar.....	22
8-sinfda “Milliy istiqlol g`oyasi”faniga oid mavzularni o`qitish bo`yicha dars ishlanmalar.....	34
Xulosa.....	55
Ilova.....	59
Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....	64